

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

«JALOLIDDIN MANGUBERDI»:

YURT SHIDDATIGA
UYG'UN

SAFAR



Yurtimizda har bir sohada kechayotgan yangi davr shiddati eng chekka hududlargacha kirib bormoqda, asosiysi bu odamlar kayfiyatida yaqqol aks etmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, infratuzilmaning zamon talablariga moslashuvi xalqimizning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilmoqda. Buning amaliy ifodasini hududlarni poytaxt bilan bog'layotgan zamonaviy transport tizimi misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.



MARKAZIY OSIYO DIPLOMATIYA MARKAZIGA AYLANMOQDA

So'nggi kunlarda Markaziy Osiyo yana xalqaro diplomatik faollik markazida bo'ldi. 30-iyun kuni Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) raisining maxsus vakili O'zbekistonga tashrif buyurib, mintaqaviy xavfsizlik, chegaraoldi hamkorligi va ishonchni mustahkamlash masalalarini muhokama qildi.

Uchrashuvlarda qo'shni Afg'oniston atrofidagi vaziyat haqida atroflicha so'z yuritildi. Shuningdek, transport yo'laklari va mintaqaviy muloqot mexanizmlariga alohida e'tibor qaratildi. Bu Yevropa davlatlarining Markaziy Osiyoga qiziqishi ortib borayotganining navbatdagi belgisi sifatida baholanmoqda.

«XAVFSIZ VA SOG'LOM YURT»: PROFILAKTIKA OYLIGI BOSHLANDI

O'zbekistonda 1-iyuldan 31-iyulga qadar «Xavfsiz va sog'lom yurt» kompleks tezkor-profilaktik tadbirlar oyligi o'tkazilmoqda. Tashabbus jamoat xavfsizligini mustahkamlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, aholi osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan. Oylkning boshlanishi munosabati bilan Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov rahbarligida kengaytirilgan yig'ilish o'tkazilib, asosiy vazifalar belgilab berildi.

Oylik davomida yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirish, giyohvandlik va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, noqonuniy

migratsiya va jamoat tartibiga tahdid soluvchi boshqa holatlarga qarshi choralar kuchaytiriladi. Bu ishlar profilaktika inspektorlari, mahalla faollari va yoshlar yetakchilari ishtirokida manzilli tarzda olib borilishi rejalashtirilgan.

Bu galgi oylkning muhim yo'nalishlaridan biri kiberjinoyatchilikka qarshi kurash bo'ladi. Mas'ullar axborot texnologiyalari sohasida sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish, aholining raqamli xavfsizlik bo'yicha xabardorligini oshirishga urg'u bermoqda. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillarining fikricha, profilaktika va targ'ibot ishlarini kuchaytirish orqali jinoyatchilik omillarini barvaqt bartaraf etish hamda xavfsiz muhitni ta'minlash mumkin.

Musulmon ZIYO

Munosabat

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARIGA ASSOSSIZ YUKLAMALAR BERISH TAQIQLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida profilaktika inspektorlari va jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirish, sohada kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish yuzasidan takliflar taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda sohada yig'ilib qolgan muammolarga aniq yechimlar, muhim takliflar ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, bugungi kunda respublika bo'yicha 8 ming 992 ta mahallada 10 mingdan ortiq profilaktika inspektorlari xizmat olib bormoqda. Biroq ularga xos bo'lmagan 50 ga yaqin qo'shimcha vazifalarning yuklatilgani og'riqli nuqtalardan bo'lib turgan edi. Natijada inspektorlar mahallada jinoyatchilikni jilovlash, aholi muammolarini hal etish o'rniga, qog'ozbozlik va o'ziga tegishli bo'lmagan topshiriqlar bilan band bo'lib qolayotgandi.

Taqdimotda shu muammolarga yechim sifatida ishlab chiqilgan «Ichki ishlar organlari profilaktika

inspektorining maqomi to'g'risida»gi qonun loyihasining mazmun-mohiyati haqida ham ma'lumot berildi. Unga ko'ra, inspektorlarning kasbiy faoliyatiga aralashish, asossiz yuklamalar berish qat'iyon taqiqlanadi. Endilikda ular davlat organlarining axborot tizimlaridan bepul foydalanish, ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha jazo qo'llash vakolatlariga (18 ta modda bo'yicha ogohlantirish berish) ega bo'ladi. Davlat idoralari inspektor so'roviga 10 kunda, taqdimnomasiga esa 1 oyda javob berishga majbur etiladi.

Shu bilan birga, ularning ijtimoiy himoyasi kuchaytirilib, hokimliklar xizmat uyi va xonalari bilan ta'minlashi qonunan mustahkamlanmoqda.

Taqdimotda yangi tizim asosida jinoyatchilikni baholashda raqamlar va ko'rsatkichlarni taqqoslash amaliyotidan to'liq voz kechilayotgani bildirildi.

Kriminogen vaziyatni baholashda faqat statistik ko'rsatkichlarga tayanish emas, balki aholi ishonchi, huquqbuzarliklarning qayta sodir etilishi, xavf guruhidagi shaxslar bilan ishlash natijadorligi asosiy mezon bo'lishi belgilanyapti. Ya'ni, xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan «Community policing» (jamiyatbay huquq-tartibot) modeli asosida ish olib boriladi. Inspektorlar har chorakda aholi oldida hisobot beradi.

Buning uchun profilaktika inspektorlari, yo'l-patrul, patrul-post va qo'riqlash xizmatlari faoliyatini o'zaro uyg'unlashtirish, ularning aholi murojaatlariga tezkor munosabat bildirish, fuqarolar bilan ochiq muloqot qilish, xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan manzilli ishlash borasidagi vazifalarini ya-

gona tizimga birlashtirish nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasiga ko'ra, profilaktika inspektori xizmat hududida tergovga qadar tekshiruv va profilaktikani amalga oshiruvchi mansabdor shaxs hisoblanadi. Shu bilan birga, zimmasiga ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksiga qat'iy rioya qilish, huquqbuzarliklar to'g'risida fuqarolarning har qanday shakldagi murojaatlarini qabul qilish va tezkorlik bilan munosabat bildirish, huquqbuzarlik sodir etilgan joyga darhol yetib kelish va tekshirish, jabrlangan fuqarolarga birinchi tibbiy yoki boshqa turdagi yordam ko'rsatish kabi majburiyatlar yuklatiladi.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, profilaktika inspektorlarini ortiqcha vazifalardan xalos etish, ularning huquqiy maqomi va ijtimoiy himoyasini mustahkamlash yuzasidan mutasaddilarga topshiriq berdilar.

Rustam DJURAYEV,
Ichki ishlar vazirining birinchi o'rinbosari – Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig'i, general-mayor.



TAYINLANDI

Murodbek Atabekovich SHERLIYEV

IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati boshlig'i lavozimiga.

Tayinlovga qadar polkovnik M. Sherliyev IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati boshlig'ining o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritgan.



E'tirof

XOLISLIK VA TEZKORLIK – BOSH MEZON

Ichqilik va oshkoralikni ta'minlash, so'z erkinligini mustahkamlash jarayonida Ichki ishlar vazirligi tizimidagi axborot xizmatlari aholi va vazirlik o'rtasida ishonchli ko'priklarni qurmoqda.

Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan IIVda o'tkazilgan bayram tadbirida Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov sohada yutuqlar va istiqboldagi vazifalarga to'xtalar ekan, raqamli makonda aholiga tezkor va ishonchli ma'lumot yetkazish borasida salmoqli natijalarga erishilganligini alohida ta'kidladi.

Vazirlik tomonidan jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun tizimli ochiq muloqotlar yo'lga qo'yilgan. Joriy yil boshidan buyon keng jamoatchilikni soha faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida



100 ga yaqin press-tur, matbuot anjumani va brifinglar tashkil etildi. Shuningdek, jurnalist va bloggerlar bilan uzviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida har chorakda matbuot anjumanlari o'tkazilib, yuzma-yuz muloqot tizimi yaratildi. Bulardan tashqari, efirga uzatilayotgan 15 ta kunlik va haftalik maxsus ko'rsatuvlar, dasturlar orqali tizim faoliyati muntazam yoritilmoqda.

Sohada erishilgan natijalarga qaramay, davr ichki ishlar organlarining ommaviy axborot vositalari bilan ishlovchi xodimlari oldiga yangi talablarni qo'yimoqda.

Shuningdek, vazir tadbir davomida yangi qiyofada chop etilayotgan «Postda-Ha nocty-At the post» gazetasidagi o'zgarishlar, undagi «Bolajon», «Oila», «Sport», «Yoshlar» kabi ilovalar gazetaning ommabop-

ligini yanada oshirayotganligini alohida ta'kidladi.

Tadbirida tizim faoliyatiga oid axborotlarni aholiga yetkazishda tezkorlik, xolislik va qonuniylik jamoatchilik ishonchini oshirishning bosh omili ekani alohida qayd etildi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalanish borasida mas'ullarga aniq vazifalar belgilab berildi.

Tadbir yakunida bir guruh faol xodimlarning mukofotlanishi tizimda mehnat qilayotgan ijodkor xodimlarni yangi zamon talablari asosida yanada g'ayrat bilan ishlashga ruhlantirishi shubhasiz.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.





(Davomi. Boshlanishi
1-betda.)

Tonggi soat 6:40. «Toshkent-Markaziy» temiryoʻl vokzali odamlar bilan gavjum. «Toshkent-Xiva-Toshkent» yoʻnalishida haraqatlanadigan «Jaloliddin Manguberdi» tezyurar poyezdi yoʻlovchilarga xizmat koʻrsatish uchun shay turibdi. «Temiryoʻlekspress» aksiyadorlik jamiyati vagon kuzatuvchisi Anvar Gʻafurov yoʻlovchilarning chiptalarini birma-bir koʻzdan kechirib, samimiy tabassum va xushmuomalalik bilan kutib olyapti. IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni taʼminlash departamenti yoʻlovchi poyezdlarni kuzatish batalyoni katta inspektori, kapitan Lazizjon Kamolov esa poyezdda xavfsizlikni taʼminlash, yoʻlovchilar xotirjamligini saqlash maqsadida unga hamrohlik qilmoqda.

Barcha yoʻlovchilar oʻz oʻrinlarini egallab boʻlishdi. Soat millari 7:00ni koʻrsatganda zamonaviy «uchar tulpor» Xiva tomon yoʻl oldi.

– Asosiy vazifamiz yoʻlovchilarning xavfsizligini taʼminlashdan iborat, – deydi kapitan L. Kamolov. – Shuningdek, turistlarning murojaatlariga xushmuomalalik bilan javob qaytarib, manzillariga eson-omon yetib olishlarida hamrohlik qilamiz. Rus va ingliz tillarini bilishim xorijlik mehmonlar bilan tez til topishishda juda qoʻl kelmoqda.

Vagonlar boʻylab yurarkanmiz, zamonaviy va qulay

«JALOLIDDIN MANGUBERDI»: YURT SHIDDATIGA UYGʻUN

SAFAR



sharoitlardan mamnun xorijlik sayyohlardan birini suhbatga chorladik.

– Men Garsiya Martinezman, – deya oʻzini tanishtirdi ispaniyalik sayyoh. – Yurtingiz menga juda yoqdi, xodimlar xushmuomala, xavfsizlik masalalari yaxshi tashkil etilgan. Qadimiy shaharlaringiz – Samarqand, Buxoro va Xivaga sayohat qilish uchun ushbu zamonaviy poyezdlar nihoyatda qulay. Men Oʻzbekistonni haqiqatan yaxshi koʻrib qoldim! Yurtimga qaytib

borganimda yaqinlarimga oʻz taassurotlarimni albatta gapirib beraman.

Yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdning yoʻlga qoʻyilishi oʻz-oʻzidan boʻlgani yoʻq. Bu Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorning amaliy ifodasidir. Mazkur hujjat asosida «Oʻzbekiston temiryoʻllari» aksiyadorlik jamiyati tizimida keng koʻlamli transformatsiya ishlari amalga oshirildi. Jumladan, «Samarqand-Ur-

gut», «Baytqoʻrgʻon-Parkent», «Navoiy-Buxoro» elektrlashtirilgan yoʻllari bunyod etilib, foydalanishga topshirildi.

Tizimni raqamlashtirish va yoʻlovchilarga qoʻshimcha qulayliklar yaratish maqsadida chiptalarni onlayn xarid qilish yoʻlga qoʻyildi, vokzal hududlariga infokiosklar oʻrnatildi.

2024-yil iyun oyida Janubiy Koreya Prezidentining Oʻzbekistonga rasmiy tashrifi doirasida yuqori tezlikda harakatlanadigan «Hyundai Rotem» elektropoyezdlarini yetkazib berish boʻyicha shartnoma imzolangan edi. Kelishilgan 6 ta poyezddan dastlabki ikkitasi yurtimizga muddatidan oldin keltirildi va joriy yilning 5-may kundan boshlab «Jaloliddin Manguberdi» tezyurar poyezdining ilk qatnovi boshlandi.

Ilgari poyezd Toshkentdan Xivagacha boʻlgan 1022 km masofani 14 soatda bosib oʻtgan boʻlsa, endilikda 250 km/s tezlik bilan bu muddat 7,5 soatga, deyarli ikki barobarga qisqardi. Poyezd 7 ta vagonidan iborat boʻlib, 389 oʻrinni tashkil etadi. U Oʻzbekistonning keskin iqlim sharoitiga (+50 dan -40 dara-

jagacha) toʻliq moslashtirilgan, chang va qum boʻronlaridan himoyalangan.

Mazkur poyezdlar harakatini taʼminlash uchun temiryoʻlchilarimiz tomonidan katta ishlar amalga oshirildi. 450 kilometrlik «Buxoro-Urganch-Xiva» uchastkasi toʻliq elektrlashtirildi hamda «Navoiy-Buxoro» yoʻnalishida 92,1 kilometrlik ikkinchi temiryoʻl qurilishi yakunlandi. Poyezd Toshkentdan yoʻlga chiqib, Samarqand, Buxoro va Urganch vokzallarida toʻxtab oʻtadi.

Kelajakdagi rejalar ham salmoqli. Hozirgi vaqtda 196,2 kilometrlik «Miskin-Nukus» yoʻnalishida elektrlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu loyiha yakunlangach, 2027-yildan boshlab «Toshkent-Nukus-Toshkent» yoʻnalishida ham zamonaviy poyezdlar harakati yoʻlga qoʻyilishi rejalashtirilgan.

...Soat millari 14:31ni koʻrsatganda, yurtimiz transport tarixi va turizm rivojida yangi davrni ochib bergan «Jaloliddin Manguberdi» poyezdi Xiva shahriga eson-omon yetib bordi. Safar davomida hech qanday koʻngilsiz hodisalar sodir boʻlmadi. Yoʻlovchilar va xorijlik sayyohlar xavfsiz hamda shinam sharoitda, koʻtarinki kayfiyatda manzillariga yetib borishdi.

«Toshkent-Xiva» yoʻnalishidagi sayohat oʻz yakuniga yetdi. Ertaga ertalab ushbu «uchar tulpor» yana «Xiva-Toshkent» yoʻnalishi boʻylab poytaxtga qaytdi. Tarix va zamonaviylikni bogʻlagan «Jaloliddin Manguberdi»ning yoʻllari hamisha bexatar, undagi yoʻlovchilarning safarlari esa fayzli boʻlsin!

Sarvar SOBIROV,
oʻz muxbirimiz.

Toshkent-Xiva-Toshkent.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Davlat mustaqilligining 35 yilligi oldidan

YANGI O'ZBEKISTONDA QONUN
USTUVORLIGI VA INSON QADRI

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy g'oyasi sifatida «Inson qadri uchun» tamoyili davlat siyosatining bosh mezoniga aylandi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning markazida inson manfaatlarini, huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonun ustuvorligini qaror toptirish hamda demokratik huquqiy davlat barpo etish maqsadi turibdi. Bu borada qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «O'zbekiston – 2030» strategiyasi, inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik islohotlari va davlat organlari faoliyatini takomillatirish chora-tadbirlari mamlakat taraqqiyotining huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, qonun ustuvorligi huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Qonun ustuvor bo'lgan jamiyatda davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolar qonun talablariga bir xil darajada bo'ysunadi. Bu borada, ichki ishlar organlari faoliyatini xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan tizim sifatida shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson qadri tushunchasi faqat inson huquqlarini e'tirof etish bilan cheklanmaydi. U insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, uning huquq va manfaatlarini himoya usuli, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, adolatli sud himoyasiga ega bo'lishini ta'minlash kabi keng qamrovli masalalarni o'z ichiga oladi.

«O'zbekiston – 2030» strategiyasida ham qonun ustuvorligi va inson qadri masalalari alohida ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Xususan, unda har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, xalq

qo'shilgan. Bu esa mamlakatda inson huquqlarini ta'minlash sohasida xalqaro standartlarga muvofiq huquqiy mexanizmlarni shakllantirish imkonini bermoqda.

Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy tamoyili «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» g'oyasiga asoslanmoqda. Ilgari asosiy e'tibor huquqbuzarlik sodir etilgandan keyingi choralarga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda profilaktika, aholi bilan yaqin mulo-

tron hisobga olish tizimlarining joriy qilinishi va protsessual harakatlarining shaffofligini ta'minlash sohada qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Inson qadri ta'minlashning muhim shartlaridan biri aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish hisoblanadi. Chunki, qonunlarning qabul qilinishi o'z-o'zidan kutilgan natijani bermaydi. Fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini yaxshi bilishi, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalanishi va huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etishi zarur. Shu maqsadda mamlakatda aholining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlar, ta'lim muassasalarida huquqiy bilimlarni kuchaytirish choralari amalga oshirilmoqda.

Yoshlar huquqlarini ta'minlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham inson qadri ta'minlash siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Davlat tomonidan aholining turmush darajasini oshirish, bandlikni ta'minlash, ta'lim va tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilganligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi inson manfaatlarini ta'minlash, adolatli jamiyat qurish va huquqiy davlatni shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda qonun ustuvorligi va inson qadri bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan fundamental tamoyillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, qonun ustuvorligi inson huquqlarining kafolati bo'lsa, inson qadri davlat siyosatining asosiy mezon hisoblanadi.

Rafik SHAKUROV,
yuridik fanlar nomzodi,
dotsent.

Soha fidoyilari

– Mahallada o'tgan uch-rashuvda aytgan gaplaringiz qalbimga yetib bordi, – dedi otaxon chuqur xo'rsinib. – Qonunsizlik bor joyda baraka bo'lmaydi. Bu qurol uyda turganidan ko'ra, sizlarga topshirganim ma'qul.

Nasridin aka otaxonning qo'lini mahkam qisib, minnatdorlik bildirarkan, ko'nglidan bir fikr o'tdi: demak, qilingan targ'ibotlar behuda ketmapti.

Podpolkovnik N. Sayfidinov boshqarayotgan nazorat-litsenziyalash guruhining vazifasi ham aslida shu – insonlar qalbiga yo'l topish orqali sodir etilishi mumkin bo'lgan fojialarning oldini olish.

Hayot xuddi kitobga o'xshaydi, uning har bir sahifasi insonni ulg'aytiradi, tob-laydi. Nasridin aka 2001-yil

XATO QILISHGA HAQQI YO'Q

IIB qabulxonasiga kirib kelgan otaxonning mahzun va biroz hayajonli nigohida ikkilanish bor edi. U podpolkovnik Nasridin Sayfidinovning ro'parasiga keldi-da, qo'lidagi tugunni stol ustiga qo'yib, sekin ochdi. Mato ichidan yillar davomida yashirincha saqlab kelingan eski ov quroli chiqdi.

Farg'ona viloyati IIB O'quv markazining oddiy tinglovchisi edi. O'shanda sohaga ilk qadamini qo'ygan yosh yigit el osoyishtaligi uchun mas'ul bo'lish nechog'lik og'irligini qalban his qilgan.

Nazorat-litsenziyalash tizimida ishlash xuddi mina qidiruvchining mehnatiga o'xshaydi – xato qilishga haqqi yo'q. Nasridin aka viloyatdagi kimyoviy moddalar saqlanadigan omborlarni

ko'zdan kechirar, ovchilik do'konlari, bosmaxonalar va tirlar faoliyatini qonun tarozisiga solarkan, hushyorlikni bir soniyaga ham yo'qotmaydi.

Joriy yilning besh oyi o'ziga xos sinov pallasi bo'ldi. Uning rahbarligida olib borilgan profilaktik ishlar natijasida 30 ta noqonuniy qurol va yuzlab o'q-dorilar ichki



ishlar organlariga ixtiyoriy topshirildi.

Shuningdek, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi xodimlari bilan birgalikda o'tkazilgan 205 ta tezkor reyd davomida noqonuniy ov qilgan va

daraxtlarni shafqatsizlarcha kesgan kimsalar aniqlanib, tabiatga yetkazilgan zarar undirildi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Ilg'or tajriba

TERGOVDA YANGI AMALIYOT SAMARASI

Jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida ortiqcha vaqt sarflamasdan, qonuniylik talablariga qat'iy rioya qilgan holda ishlarni yuritish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hollarda tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov jarayonlarining cho'zilishi fuqarolarning vaqt hamda mablag' sarflashiga, huquqiy munosabatlarning uzoq vaqt ochiq qolishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois jinoyat ishlarini qisqa muddatlarda, har tomonlama sifatli yakunlash muhimdir.

Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, joriy yilning 24-martida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Ichki ishlar vazirining «Jinoyat ishlarini tamomlashda protsessual muddatlarni belgilash bo'yicha yangi amaliyotni joriy etish to'g'risida»gi qo'shma qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat asosida «Surxondaryo tajribasi» amaliyotga tatbiq etila boshlandi.

YANGICHA YONDASHUV VAQT VA OVORAGARCHILIKNI KAMAYTIRADI

Avvalgi amaliyotda ayrim protsessual harakatlar jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin amalga oshirilgan bo'lsa, yangi tartibga ko'ra tergovga qadar tekshiruv bosqichining o'zida qonun doirasida mumkin bo'lgan barcha muhim harakatlar bajarilib, materiallar maksimal darajada tayyor holatga keltirilmoqda. Bu esa tergov organlariga ish kelib tushganidan keyin qo'shimcha vaqt talab etadigan harakatlarni qisqartirish, protsess ishtirokchilarining qayta-qayta chaqirilishiga ehtiyojni kamaytirish va ishlarni sudga yuborish muddatlarini tezlashtirish imkonini bermoqda.

Tajriba doirasida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilyapti:



- tergovga qadar tekshiruvni har tomonlama, to'liq va sifatli tashkil etish;
- jinoyat ishlarini asossiz cho'zmasdan, belgilangan muddatlarda tamomlash;
- «yarashuv» institutini keng qo'llash;
- «aybiga iqrorlik to'g'risida keli-shuv» amaliyotini rivojlantirish;
- tergov va surishtiruv ustidan nazoratni kuchaytirish.

RAQAMLAR NIMANI KO'RSATMOQDA?

– «Surxondaryo tajribasi»ning dastlabki natijalari uning samaradorligini ko'rsatmoqda, – deydi viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchisi, podpolkovnik Sodiq Narimonov. – Joriy yilning yanvar oyida sudga 178 ta jinoyat ishi yuborilgan bo'lsa, aprel oyida bu ko'rsatkich 291 taga yetdi. Bu yanvar oyiga nisbatan qariyb 1,7 baravar o'sishni anglatadi. May oyida esa sudga yuborilgan ishlar soni 299 tani tashkil qilib, yanvar oyiga nisbatan yana yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Mart oyida mazkur raqam 386 taga yetgan bo'lib, bu yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan deyarli ikki baravar ko'p demakdir.

Ushbu raqamlar jinoyat ishlari-ning sud bosqichiga chiqish sur'ati

oshganini, tergov jarayonlaridagi vaqt sarfi qisqarganini va ishlarning tezkor harakatlanishi ta'minlanganini ko'rsatadi.

TEZKORLIK VA ADOLAT – MUHIM MEZON

Jinoyat ishlarini qisqa muddatlarda tamomlash har qanday huquqiy tizim uchun ijobiy ko'rsatkich bo'lsa-da, faqat tezkorlikning o'zi yetarli emas. Asosiy maqsad – adolatli va qonuniy qaror qabul qilinishiga erishish. Shu nuqtayi nazardan, «Surxondaryo tajribasi» faqat muddatlarni qisqartirishga emas, balki tekshiruv sifatiga ham alohida urg'u berilishi bilan ahamiyatlidir.

Har qanday jinoyat ishida aybsizlik prezumpsiyasiga qat'iy amal qilinishi, shaxsning aybi yetarli dalillar bilan isbotlanishi, oqlovchi va qoralovchi holatlar teng darajada o'rganilishi qonun ustuvorligining asosiy talablari hisoblanadi. Shu bois mazkur tajriba samaradorligini baholashda faqat statistik ko'rsatkichlar emas, balki qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va barqarorligi ham muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

FUQAROLAR UCHUN QULAYLIK YARATADI

Tergov bo'yicha «Surxondaryo tajribasi»ning eng muhim jihatlaridan biri – unda inson huquq

va manfaatlarining yuqori o'ringa qo'yilganidadir. Ilgari ayrim hollarda fuqarolar qayta-qayta tergov organlariga chaqirilishiga, turli protsessual harakatlarda qatnashishiga to'g'ri kelardi. Bu vaqt, mablag' va ovoragarchiliklarni keltirib chiqarar edi.

Endilikda yangi tartib orqali:

- protsess ishtirokchilarining tergov organlariga qayta-qayta kelishi qisqarmoqda;
- fuqarolarning huquqlari qisqa muddatlarda tiklanmoqda;
- jinoyatdan jabrlangan shaxslarning murojaatlari tezroq hal etilmoqda;
- davlat organlariga nisbatan ishonch mustahkamlanmoqda.

Bu, o'z navbatida, «Inson qadri uchun» tamoyilining amaldagi ifodasi sifatida baholanishi mumkin.

SHAXSIY MAS'ULIYAT OSHMOQDA

Yangi tajriba tergovchi va surishtiruvchilar faoliyatidagi shaxsiy mas'uliyatni ham oshirmoqda. Bugungi kunda har bir ishning o'z vaqtida va sifatli yakunlanishi faqat ijrochining emas, balki tergov bo'linmalari rahbarlarining ham bevosita nazoratida turibdi. Natijada har bir jinoyat ishinin harakati doimiy monitoring qilinib, muddatlar buzilishi oldi olinyapti, sifatli tekshiruv o'tkazish holatlari kamayib, ichki idoraviy nazorat mexanizmi takomillashmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinmi, «Surxondaryo tajribasi»ning haqiqiy muvaffaqiyati faqat ishlar sonining oshishi bilan emas, balki har bir qarorning qonuniyligi, asosiligi va adolatiligi bilan ham baholanadi.

Zero, tezkorlik va sifat, samaradorlik va inson huquqlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash ushbu ilg'or amaliyotning kelgusi rivojida hal qiluvchi omil bo'lib qoladi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Nuqtayi nazar

Pul – shunchaki to'lov vositasi emas. Har bir davlatning milliy valyutasi – pul belgilarida o'sha yurtning tarixi, madaniyati, ramzlari, ulug' siymolari yoki me'moriy obidalar aks etadi. Bir so'z bilan aytganda, pullar milliy urf-odat va an'analarni o'zida mujassam etgan betakror san'at asaridir.

Xo'sh, biz o'zimiz uchun qadrlı bo'lgan milliy valyutamizga, xususan, qog'oz pullarga bo'lgan munosabatimiz qay darajada?

Afsuski, kundalik hayotda qo'limizda aylanadigan pullarda ko'ngilni xira qiladigan holatlarga tez-tez duch ke-

SO'MDAGI «SURATLAR»

yoxud milliy valyutaga hurmatimiz qay darajada?

lamiz. Kimdir ruchka bilan pul ustiga turli raqamlar, ismlar yoki mahsulot nomlarini yozib tashlaganini, hatto allaqanday suratlar chizilganini ko'rib, diling xufton bo'ladi.

Bolaligimizda kitob o'qisak, ota-onamiz: «Kitob varag'ini buklamanglar,

ziyon yetadi, kelgan joyingizga qog'oz qistirib belgilang», deyishardi. Xuddi shunday, pulga chizish, yozish ham madaniyatsizlik ekani o'sha damlarda qulog'imizga quyilgan edi. Har

gal pul ustidagi pala-partish yozuvlarni ko'rganimda, rahmatli ota-onamning o'sha o'gitlari yodimga tushadi.

Pul insonning kuch-quvati va kayfiyatiga, ro'zg'ori-

ning barakasiga ta'sir etuvchi muhim vosita. U yaxshi-yomon kunimizda, har qanday vaziyatda og'irimizni yengil qiladi. Oramizda yurgan beminnat «xizmatchi»ni – milliy valyutamizni hurmat qilmaslik, unga bepisand munosabatda bo'lish insoniylik mezonlariga to'g'ri keladimi? Yo'q, albatta! Bu muammoni jazo yoki qat'iy nazorat bilangina hal etib bo'lmaydi. Zero, bu – avvalo, har birimizning ichki madaniyatimiz va vijdonimizga bog'liq ma'naviy masaladir.

Ubaydullo QO'CHQOROV,
kapitan.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Qo'shqanotlar

BAXT VA BURCH

Asqarjon shoshilib zinadan yuqori qavatga ko'tarilarkan, to'satdan bir yosh xodimaga urilib, qo'lidagi hujjatlar yerga sochilib ketdi. «Uzr, shoshilganda hammasi aksi bo'ladi o'zi», degan xajolat bo'lib qog'ozlarni to'play boshladi. «Hechqisi yo'q, hozir yordamlashaman», deya notanish qiz unga ko'maklashdi. Shu onda beixtiyor ikki yosh xodimning nigohlari to'qnashdi. Ko'zlardagi o'sha samimiy nur keyinchalik qalblarga ko'chib, ularning oila qurishiga sabab bo'ldi.

Bugun Toshkent viloyati IIBB huzuridagi Migratsiya va personallashtirish boshqarmasi bo'lim katta inspektori, serjant Asqarjon Karimov hamda bosh boshqarmaninig Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika xizmati Huquqiy statistika markazi inspektori, katta serjant Maftuna Erkaboyevaning mehr-oqibat, ahil-inoqlik va o'zaro hurmat ustuvor bo'lgan oila qo'rg'oniga havas qilsa arziydi.

– O'g'lim Asqarjon huquqshunoslik yo'nalishida o'qishni tamomlagach, ichki ishlar organlarida xizmat qilish istagi borligini aytdi, – deydi iste'fodagi podpolkovnik Shavkatjon Obidov. – Men sohaning o'ziga yarasha murakkab va mas'uliyatli tomonlari borligini, bu kasb kishidan alohida sabr va qat'iy iroda talab qilishini tushuntirdim. Bu so'zlarim uning qarorini yanada mustahkamladi. Sinovlardan muvaf-

faqiyatli o'tib, xizmat boshlaganida quvonchim ichimga sig'madi.

Shunday kunlarning birida onasi Surayyoxon kelin tushirish haqida so'z ochib qoldi. Asqarjon biroz istihola bilan tizimda ishlaydigan bir qizni ko'z ostiga olib yurganini aytdi. Chin taqdir ekan, Maftunaxonni O'rta Chirchiqdan Bo'kaga kelin qilib olib keldik. Bugun farzandlarimizning nafaqat oilada, balki xizmatda ham bir-birini tushunib, yelkadosh bo'lib ishlayotganini ko'rib quvonamiz. Onasi ikkimiz doim ularni qo'llab-quvvatlashga harakat qilamiz.

Ha, bog'bon niholni to'g'ri parvarishlasa, uning kurtak ochgan novdalari keng quloq yozib, katta daraxtga aylanadi. Lavhamiz qahramonlari ham ota-onalari duosi va qo'llab-quvvatlashi bilan hayot

hamda xizmat yo'llarida qo'shqanot bo'lib odimlashmoqda. Bunda Asqarjonning og'ir-bosiqiligi va mulohazakorligi, Maftunaxonning samimiyatga yo'g'rilgan mehri va oqilaligi bir-birini to'ldiradi.

– Xizmat bilan oilani, ayniqsa, farzand tarbiyasini birdek olib borish oson emas, – deydi katta serjant Maftuna Erkaboyeva. – Bu borada menga qaynonam doim suyanch bo'lib keladilar. Katta qizimiz Muborakxon to'rt yoshda, kichigi Mehribon esa endigina ikkiga kirdi. Buvijonisini inijligi-yu erkaliklarini ko'tarib, men ishda bo'lgan vaqtimda ularga g'amxo'rlik qiladilar. Ishdan kechroq qaytgan paytlarimda farzandlarimning qorni to'q, ust-boshi toza, oshxonada esa

issiqqina ovqat tayyor turganini ko'rib, qaynonamning bag'rikengligiga tan beraman.

Mas'uliyatli va sharaflı kasb egalari bo'lgan Asqarjon va Maftunaning xonadoni oilaviy baxt va kasbiy fidoyilik uyg'unlashgan haqiqiy ibrat qo'rg'onidir. Zero, yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilayotgan xodimning oilasi tinch va ahil bo'lsa, uning faoliyatida samara, hayotida baraka bo'ladi. Mana shunday fayzli xonadonda kamol topayotgan farzandlar ham kelajakda el korıga yaraydigan insonlar bo'lib voyaga yetishi shubhasiz.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



Dillarda Vatan madhi

SADOQAT
TARANNUMI

Poytaxtimizdagi «Xalqlar do'stligi» san'at saroyida Ichki ishlar vazirligi Madaniyat saroyi Ashula va raqs ansambli jamoasining «Dillarda Vatan madhi» nomli konsert dasturi bo'lib o'tdi.



Ijodiy kechaning bosh maqsadi osoyishtalik posbonlariga yuksak ehtirom ko'rsatish, xodimlarda vatanparvarlik tuyg'usini yanada yuksaltirish va ularning oila a'zolariga quvonch ulashishdan iborat. Shu bilan birga, tadbirning muhim jihatlardan biri – xizmat vazifasini bajarish chog'ida mardlarcha halok bo'lgan xodimlarning oila a'zolarini ma'naviy hamda moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgani bo'ldi.

Sahnada vatanparvarlik va sadoqatni, tinchlikning qadrini ulug'lovchi kuy-qo'shiqlar yangradi. El suygan

taniqli san'atkorlar, estrada yulduzlari hamda iste'dodli xonandalar o'zlarining eng sara ijod namunalarini tuhfa etishdi. Shuningdek, bayram dasturidan joy olgan taniqli so'z ustalarining chiqishlari, hazil-mutoyibalarga boy sahna ko'rinishlari barchaga xush kayfiyat bag'ishladi.

Bu kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar kelgusida soha xodimlarining jangovar ruhini va xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Abror POYONOV,
katta serjant.

Ma'naviyat va ma'rifat darsi

DAVLAT GERBI – VATAN SHA'NI VA MILLIY G'URURIMIZ IFODASI

(2-iyul – O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi qabul qilingan kun)

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qabul qilingan kun shunchaki tarixiy sanalar xronikasidagi navbatdagi raqam emas. Bu kun – Vatan tinchligini o'z oromidan ustun qo'ygan, har kuni jinoyatchilik va xavf-xatar bilan yuzma-yuz keladigan minglab ofitser, serjant hamda safdorlarning ma'naviy tug'ilgan kunidir. Sababi oddiy: xodim davlat nomidan ish ko'rarkan, uning eng birinchi va eng oliy vakolatnomasi formasida porlab turgan mana shu muqaddas timsoldir. Ushbu nishon taqilarkan, insonning shaxsiy «men»i ortga chekinadi – uning o'rnini qonun, adolat hamda butun bir millatning irodasi egallaydi.

Millat DNKsi

Geraldika – chiroyli tasvirlar, geometrik shakllar yoki ranglar yig'indisi emas. U millat DNK-sining, siyosiy va tarixiy irodasi-ning vizual kodidir. Tarixga nazar tashlasak, qadimgi Rim legionlari o'z burgutlarini, turkiy otliqlar o'z tug'larini ko'z qorachig'idek asragan. Ular uchun tug'ning qulashi – saltanatning qulashiga teng bo'lgan.

Ko'plab imperiyalar va buyuk saltanatlar davlat timsollariga qurol-yarog'lar, yirtqich hayvonlar yoki jallod boltalarini tushirish orqali o'z qudratini tajovuzkorlik bilan ko'rsatishga uringan. Biroq o'zbek davlatchiligidan tomirlarida butunlay boshqacha falsafa oqadi. Buyuk Sohibqiron Amir Temur o'z saltanati tamg'asi sifatida qilichni emas, balki adolat, barqarorlik hamda dunyoning uch iqlimidagi uyg'unlikni anglatuvchi «uch halqa»ni tanlagani bejiz emas. Ajdodlarimiz qudratni yalang'och kuchda emas, adolat va ma'rifatda deb bilgan. Bugungi gerbimiz esa ana shu fundamental tarixiy xotiraning zamonaviy, yangilangan va yanada mukammal ko'rinishidir.

Tanlov va tarixiy burilish

1992-yilning yozi... Mustabid tuzum yemirilib, iqtisodiy va ijtimoiy inqirozlar girdobida qolgan, hali o'z qaddini to'la tiklab ulgur-magan yangi davlatning dunyo sahnasidagi qiyofasi yaratilayotgan o'ta murakkab davr. Oliy Kengashning o'ninchi sessiyasidagi bahslar rassomlarning chizmalari ustidagi oddiy munozara emas, balki millatning kelajak geosiyosiy, mafkuraviy va ma'naviy yo'nalishini belgilash yuzasidan jiddiy tortishuvlar edi.

O'sha tarixiy lahzalarda ba'zi ekspertlar gerb markaziga burgut yoki lochin singari yirtqich qushlar tasvirini joylashtirishni taklif qilganda, Erkin Vohidov singari millat ziyolilari, tarixchilarimiz bunga qat'iy qarshi chiqqandi. Sababi teran edi: O'zbekiston hech qachon bosqinchilik ruhida, o'zgalar hududi va boyligiga ko'z olaytiruvchi davlat bo'lmaydi. Bu zamin – bunyodkorlar, olimlar va mehnatkash dehqonlar yurti.

Shuning uchun muhokamalarda agressiyani ifodalovchi yirtqichlar emas, balki qayta tirilish, mehr va hurlik elchisi bo'lmish afsonaviy Humo qushi markaziy figura sifatida qabul qilindi.

Bu tarixiy tanlov bugungi ichki ishlar organlarining bosh mafkurasiga naqadar mos tushadi! Tizimning maqsadi ham fuqarolarni jazolash, qo'rqitish yoki repressiv

tizimni – tinchlik va farovonlik ekotizimini hosil qiladi.

«Vijdon detektori»

Bugungi kunda ichki ishlar organi xodimi bo'lish faqatgina qonunlarni yod bilish, jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lish yoki quroldan foydalana olishni talab qilmaydi. Eng muhimi – yelkaga ortilgan ma'naviy yukni ko'tara olishdir.



Ma'naviyat va ma'rifat darsini videomaterial tarzida ko'rish uchun QR-koddan foydalaning.

usullarni qo'llash emas, balki ularning tinch va baxtiyor hayotini – Vatan osmonida Humo qushining xotirjam parvozini ta'minlash, jamiyatda ezgulikni himoya qilishdir.

O'xshashi yo'q qiyofa

Jahon geraldika tajribasida gerblar ko'pincha geraldik qalqon ichiga joylanadi. Qalqon esa – zarbani qaytarishga, urushga shaylikni va yopiqlikni bildiruvchi element. E'tibor bering, O'zbekiston gerbi qalqon shaklida emas! U mukammallik, uzluksiz hayot siklini anglatuvchi doira shaklida yaratilgan. Bu – bizning davlat sifatida hech kim bilan kurashish niyatida emasligimizni, balki global uyg'unlikning bir qismi ekanimizni namoyon etadi.

Gerbda quyosh va tog'lar oddiy manzara emas – bu 39 million nafar aholi yashayotgan buyuk makonning jonli panoramasi. Ikki buyuk daryo – Amudaryo va Sirdaryo shunchaki suv manbayi emas, ular moziydan kelajak sari oqayotgan vaqt ne'mati, avlodlar o'rtasidagi uzviylik rishtasidir. Sakkiz qirrali yulduz doxil barcha elementlar birlashib, yaxlit bir

Fuqaro ko'chada huquqbuzarlikka duch kelganda, kimdandir zulm ko'rganda yoki shunchaki adolat istab ichki ishlar bo'limiga kirib kulganda, avvalo davlatga murojaat qiladi. Uning nazarida, qarshisida turgan oddiy profilaktika inspektori, tezkor vakil yoki tergovchi – bu butun boshli mamlakatda qonun usuvorligini ta'minlovchi tizimning muhim bo'g'inidir.

Xodim formasidagi gerb – bu o'ziga xos «vijdon detektori». Ushbu belgini taqib yurgan insonning qonunni buzishga, fuqaroga qo'pol muomala qilishga, vakolat doirasidan chetga chiqishga yoki korrupsiyaga qo'l urishga nafaqat yuridik, balki ma'naviy haqqi yo'q.

Ishonch va mafkuraviy immunitet qalqoni

Bugun Yangi O'zbekistonning aholisi 39 millionlik dovondan oshdi va jadal o'sishda davom etmoqda. Bu raqam ortida katta ijtimoiy mas'uliyat yotibdi. Bu degani – ichki ishlar organlari zimmasida 39 million xil taqdir, shuncha qarash va odamning xavfsizligi uchun kundalik javobgarlik bor.

Shu bilan birga, O'zbekiston bugun dunyoga ochildi, xalqaro integratsiya jarayonlari tezlashdi. Yurtimizga har kuni minglab xorijiy sayyohlar, investorlar va mehmonlar tashrif buyurmoqda. Aeroportdan tortib to markaziy maydonlargacha xorijlik mehmon eng ko'p duch keladigan davlat vakili – ichki ishlar organlari xodimidir. Xodimning formasidagi gerb bu o'rinda davlatning suvereniteti, uning barqarorligi va mehmondo'stligining xalqaro yuziga aylanadi. Xodimning madaniyati, tabassumi hamda yordamga shayligi orqali chet ellik inson gerbdagi Humo qushi timsoli haqiqatan ham xalqning tabiatida borligiga amin bo'ladi.

Globalashuv asrida, axborot xurujlari, kiberjinoyatlar va turli yot g'oyalar chegara bilmay avj olgan bir paytda, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni qanday shakllantirish mumkin? Faqatgina baland minbarlardan aytiladigan shiorlar yoki pand-nasihatlar bilan emas, albatta! Vatanparvarlikning eng kuchli, eng ta'sirchan targ'iboti qonunga sodiq, adolatli, korrupsiyadan yiroq va xalqparvar ichki ishlar organlari xodimining shaxsiy namunasidir.

Maktab yoshidagi o'smir o'z mahallasidagi profilaktika inspektorining halol va fidokorona xizmatini, uning odamlarga xolis yordam berayotganini ko'rsa, uning kiyimidagi gerbga, demakki, o'z Vatanga nisbatan ichki hurmat va mutlaq ishonch bilan ulg'ayadi. Ishonch bor joyda esa hech qanday yot mafkura, hech qanday buzg'unchi g'oya ildiz ota olmaydi.

Xulosa o'rnida

Davlat gerbi – moziydan sado beruvchi, bugungi kunimizni nurlantiruvchi hamda kelajak avlodlarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy mayoqdir. Undagi har bir chiziq, har bir rang va shakl ajdodlar qoni, mashaqqatli mehnati va buyuk orzulari bilan yaratilgan. Undagi har bir ma'no bizning bugungi tinchligimizni ta'minlab, jamiyatni ertangi kun sari ishonch bilan boshlab bormoqda. Gerbni e'zozlash – qonunni e'zozlash, inson qadrini ulug'lash demakdir.

Hamid G'OIPOV



Qoraqalpog' tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.

Faxriylar — faxrimiz

HALOLLIK — HAYOT SHIORI

Rishton tumanidagi «Nosgar» mahallasi azal-azaldan hunarmandlari bilan mashhur. Shundoqqina mahallaning kiraverishida, Yangi asr ko'chasidagi fayzli xonadonlardan birida ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi katta serjant Bozorali Mamajonov istiqomat qiladi.

Lavhamiz qahramonining hayot yo'li xalq tinchligi va osoyishtaligiga bag'ishlangan sharaflı xizmat bilan uyg'unlashib ketgan. 1979-yilda Marg'ilon shahar IIBda PPX inspektori sifatida faoliyatini boshlagan B. Mamajonov keyinchalik viloyat IIB jamoat tartibini saqlash xizmatida, shuningdek, tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi safida samarali mehnat qildi.

Bozorali Mamajonov yoshligidan sportga katta mehr qo'ygan inson.

Ayniqsa, kurash bilan muntazam shug'ullangani uning xizmat faoliyatida juda qo'l keldi. Shu bois huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtasida o'tkazilgan musobaqalarda faol ishtirok etib, munosib natijalarga erishdi.

Ko'p yillik halol xizmatdan so'ng ehtirom bilan pensiyaga kuzatilgan qahramonimizning faolligi va ishtiyoqi shu bilan to'xtab qolgani yo'q.

Bozorali Mamajonov qadimiy hunarga qo'l urib, kulolchilik bilan



shug'ullandi. Hunarmandchilik mahsulotlari savdosini tashkil etib, mamlakatimiz bozorlariga yetkazib berdi.

Halol mehnat bilan uch nafar farzandni voyaga yetkazgan faxriy bugun o'n nafar nabiraning sevimli bobosi. Haligicha sport bilan shug'ullanishni kanda qilmaydi, ichki ishlar organlari faxriylari o'rtasida

o'tkaziladigan turli tadbirlarda faol qatnashib, doim oldingi saflarda turadi. Yosh xodimlardan esa o'z maslahat va tavsiyalarini ayamaydi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Jarayon

Tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda aholi muammolarini o'rganishda profilaktik tadbirlarning ahamiyati katta.

EL ORALAB...



Sirdaryo viloyati IIB mas'ullari ishtirokida Yangiyer shahrida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan keng qamrovli tadbir o'tkazildi.

Tadbir poytaxtning Mirzo Ulug'bek tumanida samarali yo'lga qo'yilgan tajriba asosida tashkil etilib, mahallalardagi ijtimoiy holatni o'rganish, aholi bilan ochiq muloqot qilish va mavjud muammolarga yechim topishga qaratildi.

Jarayon davomida shaharning «Davlatobod» hamda Abdurahmon Jomiy nomli mahallalarida aholi bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Mas'ullar xonadonlarga kirib, oilalarning turmush sharoiti, mavjud muammolarini o'rganishdi. Ayniqsa, nizoli oilalar, profilaktik hisobda turuvchi shaxslar va yoshlar bilan

alohida suhbatlar tashkil etildi.

Uchrashuvlarda fuqarolarning murojaatlari tinglanib, ularni hal etish bo'yicha tegishli choralar belgilandi.

Tadbir doirasida shahardagi ishlab chiqarish obyektlari ham o'rganildi. Jumladan, yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni kasbga yo'naltirish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalari muhokama qilindi. Korxonalarda yoshlar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazilib, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, jinoyatchilikning salbiy oqibatlarini haqida tushuntirish ishlari olib borildi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Ikkinchi imkon

KELAJAKKA ISHONCH IFODASI

Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik barcha sohalarda o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Bu borada jazo muddatini o'tayotgan yosh mahkumlarni qo'llab-quvvatlash, ularni hayotga qayta tayyorlash va jamiyatga moslashtirish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratilyapti.



IIV huzuridagi JIED 4-min-taqaviy muvofiqlashtirish markazi 34-manzil koloniyasida yosh mahkumlarni tarbiyalash, kasb-hunarga o'rgatish, ularning bandligini ta'minlash va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda muassasada yoshlar uchun rus va ingliz tillarini o'rganish kurslari faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, tikuvchilik, elektr ustasi, santexnika yo'nalishlaridagi to'garaklar va quyonchilik, chorvachilik, parrandachilik xo'jaliklari tashkil etilgan. Mahkumlar bu yerda zarur bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashmoqda. Bu ularning kelgusida halol mehnat orqali o'z yo'lini topishiga xizmat qiladi.

— Mahkumlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga

ham alohida e'tibor qaratib kelinyapti, — deydi manzil koloniya boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Bekzod Elmurodov. — Tez-tez o'tkazilayotgan huquqiy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va psixologik suhbatlar yoshlarning dunyoqarashini ijobiy tomonga o'zgartirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Eng muhimi, bugun jamiyatda mahkumga faqat jazolanuvchi shaxs emas, balki o'zgarishi mumkin bo'lgan inson sifatida qarash tamoyili kuchaydi. Har bir kishi xato qilishi mumkin, asosiysi — undan to'g'ri xulosa chiqarib, hayotni yangidan boshlay olishdir.

Mamlakatimizda xatosini anglagan har bir fuqaroga Vatan va xalq ishonchini oqlash, halol mehnat bilan jamiyatda o'z o'rnini topish uchun barcha imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Yosh mahkumlarga ko'rsatilayotgan e'tibor buning tasdig'i bo'ladi. Zero, to'g'ri tarbiya, mehr va ishonch berilsa, inson hayotini tubdan o'zgartirishga qodir.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



Mulohaza

HAR «AMMO»NING ORTIDA BIR MUAMMO

**«MENKIM, BUYUK TURON
FARZANDI, OLIM-U
SOHIBQIRON AVLODI,
AMMO...»**

Imom Buxoriy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Fargʻoniy, Zamaxshariy, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek kabi buyuk bobokalonlarimiz nomini eshitsak, cheksiz faxrga toʻlamiz. Gʻurur bilan «Mening bobom!» deb koʻkrak keramiz. Beruniyning Amerika qitʻasini kashf qilgani-yu Sohobqironning bemisl jaso-ratini eslaymiz... Shu paytda oʻzimizni yengib boʻlmas jangchidek his qilamiz. Har holda, menda shunday tuygʻular kechadi.

Ammo... Shu yerda bir «ammo»si borki, hozirgina osmonlarda uchib yurgan kishini birpasda yerga tushirib qoʻyadi, chuqur oʻyga toldiradi va hatto qoʻrqitadi. Xoʻsh, biz kelajagimiz egalari boʻlgan yoshlar bilan ham shunday faxrlana olamizmi?

**«ARGENTINA OʻZBEKISTONGA
KIRADIMI?»**

Yaqinda viloyatga bordim, qarindoshlar yigʻilishdi va odatdagidek, suhbat qizidi.

Amakimning qizi maktabni bitirayotgan ekan. Bitiruv kechasiga qanday koʻylak kiyishi-yu, qaysi restoranda oʻyin-kulgi qilishlari haqida gapirib boʻlgach, uning qaysi oliy oʻquv yurtiga hujjat topshirishiga qiziqdim. U esa «Bilmasam, qaysiga topshiray?» deb oʻzimga savol berdi. Undan qaysi fandan baholari «aʻlo» ekanini soʻradim.

– Hamma fanni «5» bilan yopyapman. Lekin geografiyani yaxshi koʻraman. Sinfimizda hamma oʻquvchilar geografiyani yaxshi koʻradi. Chunki oʻqituvchimiz darsni qiziqitirib oʻtadi, – dedi.

«Xuddi shu oʻqituvchingga oʻxshab, geografiya muallimi boʻl», dedim. U rozi boʻldi. Shu bilan davradagi gap aktrisa va xonandalarga ulanib ketdi.

Jiyanim bugungi yoshlar eʼtiborida boʻlgan xonanda farzandini nega Argentina shahrida dunyoga keltirgani bilan qiziqdi. Unga Argentina shahar emas, davlat nomi ekanini, Argentina pasporti dunyodagi eng kuchli pasportlardan biriligidini, uning fuqarolari 170 dan ortiq davlatga vizasiz va elektron viza orqali kira olishini, oʻsha xonanda ham farzandining shunday imkoniyatga ega boʻlishini istagan boʻlsa kerakligini tushuntirdim.

Ammo uning «Argentina Oʻzbekistonga kiradimi?», degan savolini eshitib qotib qoldim. Jiyanimga qaradim, u hazil qilmayotgandi. Hozirgina hamma fanlarni «aʻlo» baholar bilan yopganini, geografiyaga qiziqishini aytgan jiyanim meni hayotim davomida esimdan chiqmaydigan shok holatiga soldi...

Shaxmatga qiziqadigan amakim bilan suhbatlashib, Javohir Sindarov, Nodirbek Abdusattorovlarni eslab, biroz boʻlsa-da, jiyanim va yoshlar haqidagi xavotirlarim arigan edi. Suhbat koʻnglimga «Hamma yoshlar ham jiyanimdek emas» degan taskinni bergandi. Ammo va yana shu «ammo»...

Bir koʻrsatuvni izlab internet tar-mogʻiga kirdim. «Amir Temur qabri...» deb yozishim bilan Sohobqiron va unga taalluqli materiallar chiqib keldi. Birma-bir koʻz yugurtira boshladim. «Amir Temur haqida nimalarni bilamiz?» nomli videoni ochdim: unda talaba Sohobqironning «Tinchlik uchun jonini fido qilgan buyuk shaxs» ekanini gapirgan boʻlsa, boshqa bir singlimiz rus guruhida tahsil olgani uchun u haqda hech narsa bilmasligini aytgani bir zumda koʻnglimdagi xotirjamlikni mumday eritib, xavotirimni yanada orttirib yubordi.

«Vatanimizning dunyoga mashhur ayollari» soʻroviga Saroyimulkxonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Suyuma Gʻaniyeva, Oksana Chusovitina, Diyora Keldiyorovalar qolib, Luiza Rasulova, Shahlo Ahmedova deyishgani yetmaganidek, «Oʻtkan kunlar» asarini kim yozgan?» degan savolga Abdulla Qahhor, Abdulla Avloniy va hatto Abdulla Qurbonov, deya javob bergan qorakoʻzlarimizni koʻrib na kulishimni, na yigʻlashimni bilmay qoldim.

**AYB FAQAT
YOSHLARDAMI?**

Aslida, yoshlarning kitob oʻqimay qoʻygani-yu oʻz ustida ishlamasligi muammosi kecha yoki bugun paydo boʻlib qolmagan. Bu masala har doim dolzarb boʻlgan. Bir joyda oʻqigandim: bizdan bir necha asrlar oldin yashab oʻtgan yunon faylasufi afsus bilan bosh chayqab, «Bugungi afinaliklar kitob oʻqimay qoʻydi», degan ekan. Oʻshanda oʻzimcha, Arastuning oʻzi 200 ga yaqin asar yozgan, shuncha kitobni yozish uchun u qancha kitob oʻqigan boʻlishi kerak. Donishmand bilan solishtirganda yoshlar kam kitob



oʻqigan-da, shu uchun ham u shunday fikrda boʻlgan, degan xulosaga kelgandim. Xoʻsh, bugun oʻsha faylasuf hayot boʻlganida va bizning yoshlarimizni koʻrganida nima degan boʻlardi?

Ota-onam bizga bolaligi haqida koʻp gapirib beradi. Ular uyidagi katta kutubxona haqida ham eslaydi. Har kuni kechqurun bobo-buvim bilan birga kitob oʻqib, undan keyin uyquga yotishganini aytadi. «Har kuni kitob oʻqish xuddi ertalab turganda yuzimizni yuvishimiz shart boʻlganidek, odatiy mashgʻulotimiz edi», deydi. Esimda, bolaligimda onam ham, dadam ham boʻsh vaqt topdi deguncha, kitob varaqlardi. Shularni koʻrib ulgʻayganimiz uchun biz ham mutolaa qilishni yaxshi koʻramiz.

Xoʻsh, bugun-chi? Bugun ota-onalar bolalariga qaysi odatlari bilan oʻrnak boʻlyapti? Ishdan kelib to uxlashgacha boʻlgan vaqt oraligʻida ular nimalar bilan mashgʻul? Bolalar – biz aytayotgan yoshlar ularning qaysi xislatlarini koʻrib ulgʻayyapti? Keling, javobni ham birgalashib oʻylab koʻraylik... Aksariyat (!) onalar serial, otalar esa telefondan bosh koʻtarmaydi, desak, mubolagʻa boʻlmasmikan?!

«UNI HAMMA TAN OLADI»

Viloyatdan qaytishda taksiga chiqdim. Haydovchi yoshgina yigit ekan. Uzoq yoʻlni yaqin qilish uchun suhbatlashib keldik. Bir mahal telefoniga qaradi va maza qilib kulib qoʻydi. «Opa, sizam Instagramga kirasizmi?» dedi. Tasdiq javobini olgach, B. Mansurov degan blogerni soʻradi. Keyin qoʻshib qoʻydi: «Uni hamma tan oladi. Oʻzbekistondagi eng zoʻr bloger, birinchi raqamli. Yaqinda mukofot ham oldi».

«Opa, siz jurnalsiz-ku, bilsangiz kerak, bloger boʻlish uchun qayerda oʻqish kerak? Oʻqishi bormi?»

Endi koʻnglimdagi xavotir ikki karaga ortgandi.

– Yoʻq, blogerlar tayyorlaydigan institut yoʻq. Lekin, oʻylab qaragam, boʻlishi kerak ekan. Shunday institut boʻlganida va faqat diplomi bor blogerlar video qoʻygani, yoshlar tarbiyasi bilan bogʻliq xavf bu darajada katta boʻlmasmidi? Lekin, afsuski,

sen video qoʻyishga haqli emassan, deyishga ham haqqimiz yoʻq-da.

U hayron boʻlib menga qaradi.

Oʻylab qoldim: xoʻsh, men hozir xuddi shu yigitchadek, 20–21 yoshda boʻlganimda, kimga havas qilgan boʻlardim? Kitob oʻqib otasiga mashina sovgʻa qilgan qiz, hali maktabni tamomlamay, dunyoning zoʻr universitetlariga oʻqishni naqd qilgan yigit-qizlar, navoiylik yosh ro-botchi yigit, Abbosbek Fayzulloyev, Abduqodir Husanov, Javohir Sindarov va hatto yaqindagina nafaqat turkiy davlatlar, balki boshqa qitʻa inson-larining ham eʼtiborini oʻziga tortgan Gliyer bolalari koʻz oldimga keldi. Na B. Mansurov, na boshqa bloger.

**BOLANING BILIM OLISHI
KIMGA KERAK?**

Bizda «Bolani maktab tarbiya qilishi kerakmi yoki ota-ona?» degan azaliy savol bor. Koʻplab ota-onalar shu savolga javob topishga hamon qiynaladi. Agar «Oʻgʻlim eson-omon maktabni bitirsa-yu, Rossiyada ishlab kelib, uylarni sozlasa, bizni boqsa» yoki «Qizim maktabni tugatishi bilan egasiga topshiraman», degan «orzu»-da boʻlsangiz, javobingiz tayyor – tarbiyaga maktab masʼul. Yoki oʻqituvchilar «Dars tezroq tugasa-yu, mevalarim achib qolmasidan «kompot»imni yopib olsam», degan «global» oʻyda boʻlsa, uning ham javobi ayon – bola kerakmi, ota-onasi tarbiyalab olsin!

Aksincha, shu ikkilik – maktab va oila – bolaning kelajagi haqida mushtarak fikrda boʻlsa, bolaning orzulari kichraymaydi, bachkanalikka havas qilmaydi, Amir Temur shaxsini bilib, Argentinaning shahar emas, Oʻzbekiston kabi katta mamlakat ekanini tushunadi.

Yuqoridagi fikrlar orqali barcha yoshlarimiz xuddi shunday, demoqchi emasmiz. Lekin oʻnta-elliktadan bitta degan xulosa ham odamni jiddiy oʻyga solishi kerak. Axir, soʻz davomchilarimiz, yurtimiz egalari haqida ketyapti.

Siz bunga nima deysiz?

Dildora BOZOROVA



Istiqlol tengdoshlari

YUKSAK
MARRALAR SARI

Tungi soat 23:30. Chilonzor tumanidagi ko'p qavatli uylar allaqachon sokinlik bag'riga cho'mgan. Navbatchilikdagi profilaktika inspektori Inoyat Bobojonov xizmat hududini nazorat qilmoqda. Shu payt telefoni jiringladi. Mahalla faollaridan biri bitta xonadonga shubhali shaxslar kirib-chiqayotgani haqida xabar berdi.

Profilaktika inspektori ko'p o'tmay aytilgan manzilga yetib bordi. Suhbat davomida xonadon egasi o'zini g'alati tutayotgani, savollarga uzuq-yuluq javob berayotgani uning e'tiborini tortdi. Vaziyatni to'g'ri baholagan I. Bobojonov darhol jinoyat qidiruv bo'limi xodimlarini jalb qildi. Tekshiruv davomida oshxonada javoni ortidan o'ralgan moddalar, ya'ni g'iyohvandlik vositalari topildi. O'sha kuni yana bir jinoyatning oldi olindi.

Urganch shahar IIB JXX HPB boshlig'i lavozimida faoliyat yuritayotgan mayor Inoyat Bobojo-

novning xizmat yo'li ana shunday oddiy, ammo mas'uliyatli kunlar ko'p.

– Profilaktika inspektori-ning eng katta kuchi xalq bilan o'rnatilgan aloqa, aholining ishonchidir, – deydi u bugun o'sha kunlarni eslar ekan.

Inoyat Bobojonov istiqlo tengdoshi. O'tgan 35 yil mobaynida, mustaqillik bilan baravar ulg'aygan avlod vakili sifatida u ham o'z yo'lini topib hayotdagi o'rnini egalladi. Sherobodagi bolalik yillari

uning xotirasida oddiy qishloq hayoti, mehnatsevar ota-onasi va kelajak haqidagi katta orzular bilan saqlanib qolgan. Ziyolilar oilasida ulg'aygan Inoyat 2014-yil noyabr oyida Toshkent shahrida ichki ishlar organlaridagi faoliyatini boshladi. Yosh xodim uchun poytaxtdagi xizmat katta hayot maktabi bo'ldi. U 2014-yildan 2023-yilgacha Toshkent shahrining Chilonzor tumanida profilaktika inspektori sifatida faoliyat yuritarkan, minglab fuqarolar bilan muloqot qildi, yuzlab murojaatlarni o'rgandi, oilaviy nizolar, yoshlar muammo-

lari va huquqbuzarliklarning oldini olish bilan shug'ullandi.

2023-yilda u hayotidagi muhim qarorlardan birini qabul qildi. Ko'pchilik poytaxtga intilayotgan bir paytda u aksincha yo'l tutdi. Xorazmga qaytdi. Bu qaror ortida oddiy, ammo katta ma'no bor edi – ota-onasiga yaqin bo'lish, ularga xizmat qilish.

O'zbekiston mustaqilligiga 35 yil to'layotgan bir paytda istiqlo tengdoshi bo'lgan I. Bobojonov ham ortga nazar tashlaydi. Bosib o'tilgan yo'lga qarab, xizmatdagi yutuqlar yoki egallangan lavozim-

lardan ko'ra odamlarning ishonchi va hurmatini ko'proq qadrlashini aytadi. Chunki yillar o'tadi, insonning yaxshi nomi va xalq ishonchi qoladi. Sherobodagi, bolalik orzulari bilan boshlangan yo'l poytaxt orqali o'tib, bugun Urganchda davom etmoqda. Muhimi – bu yo'l xalq bilan hamnafaslikda, rahbariyat ishonchini oqlagan holda faoliyat yuritayotgan xodimni hamisha yangi marralar sari eltadi.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



Ayol va jamiyat

KOMPLEKS KO'MAK, AMALIY NATIJALAR

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Muhimi, bu boradagi islohotlar faqat qog'ozda emas, hayotda o'z aksini topmoqda. Buni birgina Nukus shahri misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Joriy yilning dastlabki olti oyi davomida shaharda 1204 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi. O'tgan yilning shu davrida bu ko'rsatkich 453 tani tashkil etgan edi. Himoya orderlari sonining sezilarli darajada ortgani ayollarning o'z haq-huquqlarini anglab, davlatga va qonun ustuvorligiga bo'lgan ishonchi ortayotganini ham ko'rsatadi. Asosiysi, himoya orderi shunchaki chora sifatida emas, balki oilalarni asrab qolishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. 856 ta oila yarashtirilib, 305 ta holatda oilaviy kelishmovchiliklarning oldi olingani



bunga yorqin dalildir. Quvonarlisi, mazkur davr ichida shaharda oilalar buzilishi umuman qayd etilmadi.

Shu bilan birga, qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida himoya orderi talablarini buzgan 66 nafar shaxs qat'iy nazoratga olindi, 55 nafar fuqaroga nisbatan esa ma'muriy javobgarlik choralari qo'llandi.

Yaqinda shahrimizda o'tkazilgan keng ko'lamli tadbirlardan birida shahar hokimligi, prokuratura, ichki

ishlar hamda kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari, tibbiyot birlashmasi va qator mutasaddi tashkilotlar vakillari hamkorlikda ish olib bordi. Tadbir davomida 200 nafardan ortiq xotin-qizlar to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Natijada ularning 24 nafarida turli kasalliklar aniqlanib, 16 nafari zudlik bilan shifoxonaga yotqizildi, 22 nafar ayolga esa bepul dori-darmonlar tarqatildi.

Xotin-qizlarning huquqiy himoyasi masalasi ham e'tibordan chetda qolmadi. Ellikdan ortiq opa-singillarimizning muammolari tinglanib, ularga zarur huquqiy maslahatlar berildi. Ahamiyatlisi, murojaatlarning aksariyati o'sha joyning o'zidayoq ijobiy hal etildi. «Chimboy chayxana» makon fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi A. Pirjanova ana shunday e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilganlardan biri bo'ldi. Tibbiy ko'rik davomida uning salomatligi jiddiy o'rganilib, kasalligi tufayli nafaqaga chiqarish bo'yicha xulosa berildi va 1-guruh nogironligi rasmiylashtirildi.

Bunday tadbirlarning o'tkazilishi va joyida muammoli masalalar hal etilayotgani zamirida inson qadriini yuksaltirish, ayollarimizning jamiyatda munosib o'rin egallab, tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash maqsadi mujassam.

Ayjamal NAMENOVA,
podpolkovnik.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



XORIJIY TILLAR BILIMDONI

«Yoshlar oyligi» doirasida ichki ishlar organlari tarixida ilk marotaba «Xorijiy tillar bilimdoni» tanlovi tashkil etildi. Unda hududiy bosqichlardan saralangan 20 nafar yosh xodim tinglab va o'qib tushunish, yozma ish hamda suhbat shartlari bo'yicha o'zaro bellashdi.

Qizg'in kechgan bahslar yakuniga ko'ra, Toshkent shahri vakili – Chilonzor tumani IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, leytenant Komila Azimova faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi va tanlovning mutlaq g'olibiga aylandi. Tadbir so'ngida g'olibga IIVning 1-darajali diplomi, statuetka hamda 10 million so'm pul mukofoti topshirildi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



IJODKOR LEYTENANT

Qo'sh-tapa tumani IIB JXX HPB «Nurafshon» MFY profilaktika inspektori, leytenant Farhodjon Mo'mirov mahalla ahliga sadoqat bilan xizmat qilib kelmoqda.

FARG'ONAM

*O'n uch yo'nalishli sariq avtobus,
O'tar Farg'onaning do'ng dovonidan.
Quyosh boshin egib, asta cho'kar'iz,
Jannat hidi kelar issiq nonidan.*

*Toshkentga yo'l oldim, orzular cheksiz,
Ilm-zijo terdim har bir onimdan.
Onamning ko'ylagi kabi chiroyli,
Ko'ngil uzolmayman Marg'ilonimdan.*

*Formada qaytaman, viqor-la uyga,
O'tib Dang'aradan, ham Qo'qonidan.
Ishkomda uzumlar qarshilar meni,
Rayhon hidi kelar dasturxonidan.*

*O'n uch yo'nalishli sariq avtobus,
O'tar Farg'onaning do'ng dovonidan.*

SINGIL

*Dunyo tashvishidan sovusa ko'ngil,
Mehr xirmonidan berar bir shingil.
Dardingizni olar, yengil tortar dil,
Akaga mehribon bo'larkan singil.*

*Qo'lda bo'lmaganda ishing tayini,
Odat qilsangiz gar ishrat-u mayni.
Yuz o'g'irsa sizdan do'st-u og'ayni,
Akaga mehribon bo'larkan singil.*

*Xato qilsa, darrov so'rar kechirim,
Boshiga ro'molin o'rar bejirim.
Hech kimga aytmaydi saqlagan sirim,
Akaga mehribon bo'larkan singil.*

Farhodjon MA'MIROV,
leytenant.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

U ichki ishlar organi xodimi bo'lib ishlashni bolaligidan orzu qilgani bois avval IIV Farg'ona akademik litseyida, so'ngra vazirlik Akademiyasida tahsil olib, yetuk mutaxassisga aylandi. 24 yoshni qarshi olayotgan profilaktika inspektori mana, ikki yildirki, «Nurafshon» mahallasida osoyishta va xavfsiz muhitni yaratish borasida o'z jon-kuyarligini namoyon etib kelyapti.

E'tiborlisi shundaki, 3900 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladigan ushbu mahallada joriy yilning o'tgan davrida birorta jinoyat qayd etilmadi va «yashil» hudud sifatida baholandi.



YOSHLIK – SHIJOAT VA JASORAT FASLI

Yoshlar – bugungi kun qahramonlari! Ayniqsa, el-yurt osoyishtaligi yo'lida sharaf bilan xizmat qilayotgan, ilm-fan, sport va boshqa turli sohalarida yuksak cho'qqilarni zabt etayotgan shijoatli, iqtidorli yoshlarimizning har bir yutug'i barchamizga faxr baxsh etadi.

Endilikda shunday zabardast va muzaffar yigit-qizlarning hayoti va faoliyati haqidagi qiziqarli maqolalar va zafarlar tarixi bilan bir makonda – «Yoshlar» ilovasida tanishishingiz mumkin.

«Yoshlar» ilovasi – bu iqtidorli tengdoshlaringizning yutuqlari, motivatsiyaga boy hikoyalari va muvaffaqiyat sirlari mujassam bo'lgan maydondir.



Sirdaryo viloyati IIB TVBSO katta mutaxassis-aloqachisi, kichik serijant Otabek Xolmatov bolaligida ilk bor mag'lub bo'lganini yaxshi eslaydi. O'shanda boksni tashlamoqchi bo'ldi. Lekin otasi Shuhrat aka uni qo'llab-quvvatladi. Hali ko'p sinovlarga duch kelishini, ularni yengib o'ta olsagina maqsadga erishishini qulog'iga quydi. Bu o'g'it uning butun hayoti uchun dasturlamal bo'ldi.

2014-yilda ilk bor o's-nikan Respublikasi vakili mirlar o'rtasida O'zbekis-ton chempionligini qo'iga kiritdi. 2016-yilda yoshlar o'rtasida jahon chempio-natiga yo'llanma oldi. Beshta jang, to'rtta g'ala-ba. Chorak finalda Domi-



Aytilish mumkinki, poytaxt IIBB saflarida o'z xizmat vazir-falarini sidqidildan bajarish bi-lan bir qatorda, turli jabhalar-da, jumladan, sport sohasida professional darajada faoliyat yuritib, jahon arenalarida ichki ishlar organlarida yurtimiz sharafini hamda himoya qilib kelayotgan yosh xodimlar talaygina.

IIBB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik batalyoni katta mutaxas-sisi, serijant Dilshodbek Yuldoshev bolaligidan sambo, dzyu-do bilan shug'ullanib keladi. Dilshodbekning yutuqlariga nazar tashlasak, birgina 2023-yilning o'zida mazkur sport turida O'zbekiston chempionatida 2-o'rin; Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan xalqaro turnirda, Ostona shahrida o'tkazilgan Osiyo chem-



pionatida 1-o'rin; Qozon shahrida o'tkazilgan «Dinamo o'yinlari»da 3-o'rin, Cho'lpon-ota shahrida o'tgan «Jahon kubogi» bahslari-



ton chempionligini qo'iga kiritdi.

Joriy yil 30-iyun – Yosh-lar kunida Otabek Xolma-tov xalqaro maydonda mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilgani, ichki ishlar tizimida hu-quqbuzarliklarga qarshi kurashishda ko'rsatgan jasorati e'tiborga olinib, Prezident qaroriga binoan, «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV, o'z muxbirimiz. Sirdaryo viloyati.

Yigirma sakkiz yoshni qarshi olgan kichik ser-jant Otabek Xolmatovda-gi mehnatsevarlik, inti-luvchanlik, fidoyilik uning bundan keyin ham yurtimiz sha'nini munosib himoya qilishiga ishonch uyg'o-tadi.

da 2-o'rin, Ar-Riyodda o'ti-gan Butunjahon o'yinlarida 2-o'rinni egallagan. Shuning-dek, joriy yilning yanvar oyida Farg'ona shahrida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida barcha raqiblarini mag'lub etib, oltin medal sohibi bo'ldi. Kuni kecha Filippin davlatida sambo bo'yicha o'tkazilgan Osiyo va Okeaniya chempio-natida qatnashgan Dilshod-bek yuksak mahorat ko'rsa-tib, bronza medali sohibiga aylandi.

Uning jahon kurash may-donlarida mardlik, jasorat ko'rsatib, Yangi O'zbekis-tonning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yanada oshi-rishga qo'shgan katta hissasi munosib baholanib, Prezi-dentimiz tomonidan «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

O'z muxbirimiz.

SAN'ATGA OSHUFTA QALB

El-yurt osoyishtaligini ta'minlashdek sharafli vazifani sidqidildan ado etayotgan ichki ishlar organlari xodimlari safida o'z iste'dodi va ma'naviy dunyoqarashi bilan hamkasblariga shaxsiy namuna bo'lib kelayotgan yoshlar talaygina. Xizmatdagi mas'uliyati, ijodga oshufta qalbi bilan alohida e'tibor qozongan serqirra yoshlardan biri – IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash de-partamenti bo'linmalari, Yoshlar ittifoqi yetakchilar kengashi katta inspektori, katta leytenant Rasul Oripovdir.



Rasul Oripov bolaligidan san'atga mehr qo'ygan. Estrada hamda an'anaviy ijrochilik yo'nalishlarida vatanparvarlik ruhi, yurtga sadoqat hissi jo'sh urgan qo'shiqlari bilan tinglovchilar qalbidan chuqur joy olib kelayotgan yosh ofitser-ning tor va rubob kabi milliy cholg'ular-da ham mohirona kuy ijro etishi uning san'atga bo'lgan cheksiz muhabbatidan dalolat beradi.

Bugungi zamon yoshlari oldiga faqat kasbining yetuk mutaxassisi bo'lish emas, balki yuksak ma'naviyatli, keng dunyoqarashli va ijodkor shaxs sifatida kamol topish vazifasi ham qo'yilgan. Rasul Oripov ana shunday fazilatlarini o'zida mujassam etgan, mehnati, intilishi va ijodi bilan tengdoshlariga munosib o'nak bo'lib kelayotgan yoshlardandir.

Dilrabo ABDIXOMIDOVA, katta leytenant.

OTA IZIDAN

Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev hamda Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dul-layev xizmat faoliyatida alohida namuna ko'rsatib kelayotgan yosh ichki ishlar organlari xodimlarini taqdirladi. Toshkent viloyati IIBB JXX HPB xodimi, katta leytenant Saidalixon Mutalibxonov fidoyiligi va namunali faoliyati uchun qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan mukofotlandi.

Katta leytenant Said-alixon Mutalibxonov uch yildan buyon ichki ish-lar organlarida samarali xizmat qilib kelmoqda. U tizimdagi ilk xizmatini Bo'ka tumanida boshla-gan edi.

E'tiborlisi, Saidalixon xizmatda otasi kasbini davom ettirmoqda. Uning otasi Sobirjon Nizomiddi-nov ham uzoq yillar ichki

ishlar organlarida xizmat qilib, podpolkovnik unvoni bilan pensiyaga chiqqan. Bugun otasining izi-dan borayotgan yosh xodimning el-yurt tinch-ligi yo'lidagi jonkuyarligi rahbarlar va jamoatchilik tomonidan munosib e'ti-rof etilmoqda.

Abror POYONOV, katta serijant. Toshkent viloyati.



KO'NGILGA YO'L TOPIB....

Navbatdagi profilaktik tadbir odatdagidek boshlandi. O'quvchilar bilan suhbatlar, tushuntirish ishlari, huquqiy targ'ibot... Biroq tadbir davomida o'quvchilardan birining yonida kichik hajmdagi tig'li buyum borligi aniqlangach, vaziyatga jiddiyroq yondashishga to'g'ri keldi. Boshqa birov bu holatga oddiy huquqbuzarlik sifatida qarashi mumkin. Ammo Yangibozor tumani IIB JXX HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog, leytenant Dildora Madaminova uchun bu oddiy masala emas edi.

O'quvchining ota-onasi chaqirtirildi. Ustozlari, guruhdoshlari bilan alohida suhbatlar o'tkazildi. O'smarning xulq-atvori va ruhiy holati chuqur o'rganildi. O'quvchi va uning ota-onasi bilan manzilli profilaktik va psixologik ishlar olib borildi. Chunki ba'zan inson taqdirini qattiq jazo emas, o'z vaqtida aytilgan samimiy so'z va berilgan to'g'ri maslahat yaxshi tomonga o'zgartiradi.

Ana shunday vaziyatlarda leytenant Dildora Madaminovaning o'z kasbiga sadoqati, yoshlar taqdiriga

befarq emasligi va adolatga sodiqligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Dildora IIV Xorazm akademik litseyini imtiyozli diplom bilan bitirdi va 2021-yilda IIV Akademiyasiga o'qishga kirdi. Akademiyada o'qish davomida «Iqtidorli kursant» ko'krak nishoniga sazovor bo'ldi. Akademiyani ham imtiyozli diplom bilan tamomlagan Dildora bugun o'z bilim va salohiyatini yoshlar tarbiyasi yo'lida safarbar etmoqda.

– Meni eng ko'p ota-onamning matonati, tarbiyasi va ishonchi ilhomlantiradi. Chunki insonning eng katta kuchi – uni duo qilib turgan oilasi borligida, – deydi u.

Xizmatdan tashqari paytda ham Dildora o'z ustida ishlashni davom ettirmoqda. «Ajdodlar izidan» kitobxonlik tanlovi, «Zakovat» intellektual o'yinlari hamda sport musobaqalarida faol qatnashib kelmoqda. Turk tilidan milliy sertifikatni qo'lga kiritgani esa uning bilim olishga bo'lgan cheksiz intilishidan dalolatdir.

Dildoraning hayotiy qarashlari ham ko'pchilik yoshlar uchun o'rnak bo'la oladi:

BESH TILDA MULQOT, BIR MAQSADDA XIZMAT

Samarqandning tashrif qog'ozini hisoblangan Registon maydoni har kuni dunyoning turli mamlakatlardan kelgan mehmonlarni qarshi oladi. Ularning har biri o'z tilida gapiradi, o'z madaniyati va dunyoqarashiga ega. Ana shunday paytlarda sayyohlar bilan erkin mulqot qila oladigan, ularning muammolariga yechim topishga tayyor xodimlar juda zarur.

Samarqand viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi jamoat tartibini saqlash guruhi inspektori, leytenant Davronjon No'monov yurtimizga tashrif buyurayotgan mehmonlarning xavfsizligini ta'minlashga munosib hissa qo'shmoqda.

Davronjonning o'quvchilik kezaridayoq xorijiy tillarga qiziqishi yuqori bo'lgan. Uning aytishicha, birinchi xorijiy til sifatida nemis tilini o'rgangani keyinchalik ingliz tilini o'zlashtirishini ancha osonlashtirgan. Talabalikka qabul qilingach, bir yil ichida ingliz tilini ham muvaffaqiyatli o'rganib, erkin mulqot qila oladigan mutaxasssiga aylandi. 2022-yilda «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universitetini tamomlagan lavhamiz qahramoni bugun sayyohlar bilan ishlashda o'z bilim va ko'nikmalarini samarali qo'llamoqda. U o'zbek, ingliz, nemis va



– Qiyin vaziyatlarda taslim bo'lmasdan davom eta olganimda o'zim bilan faxrlanganman. Chunki odamning haqiqiy kuchi yutuqlarda emas, murakkab vaziyatlarda, sinovli damlarda namoyon bo'ladi, – deydi u.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



rus tillaridan tashqari tojik tilini ham yaxshi biladi. Bu esa dunyoning istalgan burchagidan kelgan mehmonlar bilan bemaol suhbatlashish va zarur yordam ko'rsatish imkonini bermoqda.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

KUCHLI JAMONANING KUCHLI SARDORI

Har bir g'alaba ortida tinimsiz izlanish, mehnat va maqsad mushtarakligi yotadi. Surxondaryo viloyati IIB jamoasining ketma-ket ikki yil – 2025- va 2026-yillarda Ichki ishlar vaziri kubogi uchun o'tkazilgan «Zakovat» intellektual o'yinlari g'olibiga aylangani ana shunday izchil mehnat va jamoaviy birdamlikning yorqin natijasidir.

Jamoa sardori, viloyat IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati katta inspektori, katta leytenant Shahriddin Mamatov bolaligidanoq «Zakovat» ko'rsatuvlarini muntazam kuzatib, berilgan savollarga javob topishga intilardi. Yillar davomida mustahkamlangan bu qiziqish talabalik davrida uning turli intellektual o'yinlarda qatnashishiga sabab bo'ldi.

2023-yilda Boysun tumani IIBda voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog vazifasida ishlab yurgan kezarida Shahriddin bo'limning «Zakovat» jamoasini tuzdi. Qisqa fursatda jamoa viloyat bosqichida tengsiz deb topildi. Ay-



riddin Mamatov. – Buning uchun esa doimo o'qish, izlanish va o'z ustida ishlash zarur.

Surxondaryo viloyati IIB terma jamoasi yutuqlari isbotlaydiki, intellektual muvaffaqiyat temir intizom, izchil mehnat va tinimsiz intilish mahsuli. Shunday jamoalar bor ekan, tizimda bilimga bo'lgan e'tibor va intellektual salohiyat yuksalib boraveradi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

MUTOLAA ORTIDAN KELGAN ZAFAR



Jizzax viloyatining Zomin shahrida o'tkazilgan kitobxonlik bo'yicha «Ajdodlar izidan» intellektual tanlovining final bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV jamoasi muvaffaqiyatli qatnashdi. Jami 18 ta jamoa ishtirok etgan bilim va zakovat bahsida yosh xodimlarimiz 45 ball bilan faxrli birinchi o'rinni egalladi.

Jamoamiz a'zolari barcha savollarga dastlabki 10 soniya ichida javob berishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu yuqori natija evaziga g'oliblikni qo'lga kiritgan jamoamiz munosib taqdirlandi. Shuningdek, tanlovning Qurolli Kuchlar tizimi bo'yicha o'tkaziladigan yakuniy bosqichida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi nomidan qatnashish uchun maxsus yo'llanmaga ega bo'ldi.

Albatta, bu yutuq vazirlik jamoasining bilim va intellektual salohiyati, kitobxonlik darajasi naqadar yuqori ekanligini yaqqol namoyish etdi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, an'anaviy qog'oz kitoblarni mutolaa qilish inson ongi, fikrlashi va xotirasini charxlaydi. Elektron ekrandan farqli o'laroq, kitob

varaqlari diqqatni bir joyga jamlash va ma'lumotni teran anglash imkonini beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar organlarining barcha tarkibiy va hududiy bo'linmalarida «Zakovat», «Zakovat QUIZ», «Eng yaxshi kitobxon xodim», «Yosh kitobxon» tanlovlari hamda «Kitob o'qish soati» kabi tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Muhimi, bu sa'y-harakatlarimiz besamar ketmayapti.

Xodimlarimiz o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yanada ommalashtirish bundan buyon ham ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Asan SHAMURATOV,
leytenant.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

ISMI JISMIGA MONAND



Bugungi kunda yosh ofitserlarimiz barcha jabhalarda tengdoshlariga chinakam oʻrnak boʻlmoqdalar. Joriy yilda Ichki ishlar vazirligi Akademiya sinfi katta leytenant unvonida tamomlagan Gʻolibjon Qurbonaliyev ayni shunday istiqbolli yosh xodimlar sirasiga kiradi.

Bilim ufqi keng va in-tiluvchan qahramonimiz salohiyatni ham talab etmoqda. Buni teran anglagan Gʻolibjon Qurbonaliyev zamonaviy texnologiyalar va tili bilish koʻnikmalarini ham mukammal egallab kelyapti. Xususan, u raqamli texnologiyalar sohasida oʻtkazilgan «Bir million dasturchi» loyihasida faol ishtirok etib, maxsus sertifikatga ega boʻldi. Bundan tashqari, harbiylashtirilgan taʼlim munosabatlari oʻrtasida oʻtkazilgan «Ingliz tili bilimdoni» tanlovida gʻoliblikni qoʻlga kiritdi.

Davr ichki ishlar organlari xodimidan faqat yuqori jismoniy tayyorgarlikni emas,

Joriy yilda Ichki ishlar vazirligi Akademiya sinfi tamomlagan katta leytenant Zebiniso Qarshiboyeva orzu-maqсадlarini oʻz bilimi va shijoati bilan uygʻunlashtira olgan iqtidorli yoshlardan biridir.

U kursantlik davridayoq bilimiga chanqoqliq, namunalari intizomi va tashkilotchilik qobiliyati bilan tengdoshlari orasida yaqqol ajralib turdi. Xususan, Ichki ishlar vaziri stipendiati, Iqtidorli kursantlar kengashi aʼzosi sifatida oʻz ustida muntazam ishladi, jamoat tadbirlarida ham faollik koʻrsatdi. Natijada «Taʼlim fan olimpiadasida gʻolib» deb topildi. Uning ingliz tili boʻyicha S1 (IELTS 7.5) sertifikatiga ega ekani sohaga oid xalqaro tajriba va zamonaviy bilimlarni mukammal oʻrganishida muhim omil boʻlmoqda.

Zebinisoning yutuqlari faqat mamlakatimiz miqyosi bilan chegaralanib qolmadi. U Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH)

Gulnoza TURGʻUNBOYEVA



di, – deydi viloyat IIB Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar va kadrlar bilan taʼminlash xizmati yoshlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, katta leytenant Abrorbek Alimov. – Musobaqa shartlariga koʻra, ishtirokchilar 2 kilometr masofani bosib oʻtish davomida 8 ta maxsus sinovni bajarishdi. Jamoamiz barcha shartlarni 7 daqiqa 47 soniyada uddalab, faxrli birinchi oʻrinni egalladi.

Mazkur gʻalaba viloyat ichki ishlar organlarida yosh kadrlarni har tomonlama tayyorlash, ularning jismoniy, jangovar va kasbiy salohiyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar samarasidir.

Saminjon HUSANZODA, oʻz muxbirimiz.

Andijon viloyati.

EGIZAK POSBONLAR



Safdor Husan Sayfiddinov esa hozirda IIV huzuridagi JIED Beshinchi mintaqaviy hududi 11-sonli jazoni ijro etish koloniyasi nazoratchisi sifatida xizmat qilmoqda. Uni xushmuomalaligi, ochiqkoʻngilligi va seriyatligi uchun xizmatdoshlari uni koʻrib:

– Husan, bu yerda nima qilayotibsan? – deb hayron boʻlishdi.

Egizaklar tashqi koʻrinishdan bir-biriga juda oʻxshaydi. Shuning uchun ham baʼzan qiziq holatlar yuz berib turadi.

Bir kuni Husan oʻq oʻtish mashgʻulotida ishtirok etayotganida, Husanning xizmatdoshlari uni koʻrib:

– Husan, bu yerda nima qilayotibsan? – deb hayron boʻlishdi.

DILAVIY TOTUVLIK SIRI

Katta leytenant Gulzoda Poʻlatova toʻrt yildan buyon Buxoro shahar IIOFMB 4-sonli IIB JXX HPB xotin-qizlar masalari boʻyicha inspektori lavozimida xizmat qilayotgan.

Baʼzan yoshlar biz hal qilishga qiynalgan muammoga ham ijobiy yechim topa olarkan, – deydi Saʼdiy Sheroziy nomli mahalla fuqarolar yigʻini xotin-qizlar faoli



Hasan esa kulib: – Men Hasanman, Husanning akasiman, – dedi. Ularning yana bir oʻzaro oʻxshash jihati – har ikkisi ham milliy kurashga juda qiziqadi. Sakkiz yoshidan beri ushbu sport turi bilan shugʻullanib kelayotgan aka-uka koʻpchilik musobaqalarda qatnashgan.

Bugun ular turli xizmat yoʻnalishlarida faoliyat yuritmoqda. Ammo maqsadlari yagona – otasi va bobosi kabi el-yurt osonlashtirishni ishonchli himoya qilish. Bir paytlar ikkisi oʻrtasida talash boʻlgan furaj-kazogʻlarning hayotida burchga sadoqat ramziga aylangan.

Mahliyo XOLOVA, oʻz muxbirimiz.


Navoiy viloyati.

Buxoro viloyati.

Mirzoqul AHADOV, oʻz muxbirimiz.

Грани мастерства

ВДОЛЬ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫХ ПУТЕЙ



И снова тревожная весть! Поступило сообщение, что у железнодорожных путей в махалле Дустлик подростки пасут около тридцати овец. Инспектор профилактики станции «Сырдарья» ОПП УОБТ Сырдарьинской области майор Хаётилло Тиловбердиев незамедлительно выехал на место.

По прибытии инспектор увидел, как вдоль магистрали пасется отара. Недалеко играли мальчишки, которые даже не присматривали за овцами. Майор окликнул ребят. Трое бросились наутек. Двое, виновато опустив головы,

робко направились к сотруднику.

Майор по-мужски пожал мальчикам руки и спросил, как их зовут и кто их родители. Затем объяснил, что вдоль железной дороги выпас скота запрещен. Хорошо, что она огорожена, но в

любом случае правила надо соблюдать неукоснительно. Затем он велел мальчикам гнать отару в махаллу, а сам направился следом. В отношении родителей подростков будут приняты законные меры...

Хаётилло Тиловбердиеву уже за сорок. 22 года он служит в подразделениях Управления обеспечения безопасности на транспорте.

Чего он только не повидал. В начале 2000-х экономическая ситуация была тяжелой. Люди воровали кабель, металлоемкое оборудование. Обычным делом были и кражи зерна из грузовых вагонов. Хаётилло вместе с коллегами участвовал в ночных рейдах у путей. Они ловили с поличным «умельцев», которые запрыгивали на ходу

в вагоны приближающихся товарных поездов.

С годами уровень жизни людей изменился, что положительно повлияло на общую обстановку – криминогенная ситуация стабилизировалась. На участке протяженностью почти 40 километров уже несколько лет не допущено совершения краж. Конечно, в этом есть и заслуга героя очерка.

В графике служебных будней инспектора важное место занимает проведение профилактических мероприятий среди населения. Недавно майор организовал встречу в махалле Бунёдор. Инспектор еще раз напомнил махаллинцам о соблюдении правил безопасности: переходить магистрали лишь в установленных местах, не допускать беспечности в

отношении детей и не разрешать им играть у железнодорожного полотна. Кроме того, он подчеркнул, что на железной дороге случаются преступления, связанные с хулиганством и кражами. Ведь среди пассажиров бывают самые разные люди, а потому надо проявлять бдительность.

Отдельный аспект деятельности – работа с учащимися образовательных учреждений. Школьники буквально засыпают его вопросами.

По натуре Хаётилло Тиловбердиев человек общительный и отзывчивый. Если вам доведется побывать на станции «Сырдарья», вы сможете увидеть, как он помогает пожилым людям с тяжелым багажом или тем, кто просто нуждается в поддержке. Люди его знают и искренне уважают.

Соб. корр.

Сырдарьинская область.

Призвание

УЧИТЕЛЬ, КОТОРЫЙ УЧИТ СЕРДЦЕМ

Существуют профессии, которые перерастают в призвание. Именно такой судьбоносной дорогой стала педагогика для Муниры Эркаевой – преподавателя истории и права Ташкентского академического лицея № 1 МВД Узбекистана.

Она родилась в Андижане, но все ее детство и отрочество прошли в Ташкенте. В семье преподавателей – отца-философа и мамы-историка – любовь к знаниям и уважение к учительскому труду впитывались с юного возраста. Неудивительно, что еще маленькой девочкой она рассаживала кукол и проводила для них уроки. Уже тогда знала – станет педагогом...

Профессиональную деятельность Мунира Алиевна начала в столичной школе № 27, которую окончила сама. Молодому специалисту доверили девятый класс – сорок шесть учеников. За плечами не было опыта. Но именно тогда проявилась ее мудрость – она сумела завоевать доверие ребят, сделав их единомышленниками.

На протяжении более чем сорока лет Мунира Алиевна преподавала историю, правоведение, руководила школой, работала на административных должностях. Однако даже на самых ответственных постах она неизменно продолжала вести уроки.

Для нее история – не просто даты и события. Это память, традиции народа. Рассказывая о Бухарском эмирате, развитии национальной культуры, она не ограничивается материалами учебников. Читает стихи, исполняет народные песни, рассказывает о макомах... Благодаря такому подходу ученики выходят за рамки параграфов, проникаются духовными ценностями родного народа.



Мунира Алиевна убеждена: задача педагога не только дать знания, но и воспитать человека – честным, трудолюбивым, справедливым, умеющим самостоятельно принимать верные решения.

– Ученики дарят мне силы и вдохновение, – говорит педагог. – Наперекор вечерней усталости, с утра, оставив заботы позади, спешу в лицей.

За десятилетия работы ее мудрость и забота согрели сердца сотен воспитанников. Среди них есть офицеры, специалисты разных профессий. И для нее нет большей награды, чем встреча с бывшим учеником, который спустя много лет говорит простое, но очень важное: «Спасибо, Мунира Алиевна».

Юрий ЛИ,
педагог.

Служба пробации



ШАНС НА ИСПРАВЛЕНИЕ
Сотрудниками группы пробации СОБ ОВД Гиждуванского района совместно с коллегами из других служб ведется системная работа по социальной адаптации поднадзорного контингента, профилактике повторных правонарушений. Особое внимание уделяется 44 женщинам и 193 представителям молодежи, отбывающим наказание.

Для обеспечения занятости подучетных в разрезе махалл сформированы списки, за каждым из них закреплен ответственный сотрудник. Состоящие на учете посещаются на дому, изучается психологическая атмосфера в их семьях. Вместе с махаллинскими активистами ведется индивидуальная работа.

В результате проведенных проверок в отношении осужденных, строго соблюдавших установленные правила, вставших на путь исправления, применены меры поощрения: 112 человек условно-досрочно освобождены судом от отбывания наказания. К тем же, кто не сделал правильных выводов, применены меры взыскания: 32 осужденным назначенное наказание заменено на более строгое. При этом 19 человек направлены для отбы-

вания наказания в виде лишения свободы, 13 лицам неотбытая часть срока заменена на более строгий вид наказания. В числе условно-досрочно освобожденных от отбывания наказания – Р. Шухрат, который осознал свои ошибки. Осужденный А. Умид, напротив, систематически нарушал установленные правила, в связи с чем назначенное ему наказание в виде исправительных работ заменено на более строгое.

В формировании уважения к закону, успешной интеграции оступившейся личности в общество, недопущение повторных правонарушений и заключается цель деятельности службы пробации.

Элёр ЯРАШОВ,
лейтенант.
Шерзод ЭШИМОВ.

Бухарская область.

► **Media and public relations****OBJECTIVITY AND SPEED – THE MAIN CRITERION**

A festive event was held at the Ministry of internal affairs on the occasion of Press and mass media workers' day. The Minister of internal affairs, lieutenant general Aziz Tashpulatov, emphasized the growing role of press services in ensuring openness and transparency, as well as

delivering timely and reliable information to the public.

It was noted that since the beginning of the year, around 100 press tours, press conferences, and briefings have been organized to bring the activities of the system closer to the public. Regular open dialogues with journalists and

bloggers have also been established on a quarterly basis. In addition, the system's activities are being consistently covered through 15 daily and weekly special programs and broadcasts.

The newly formatted newspaper «Postda–Ha nocty–At the post» and its sections «Bolajon», «Oila», «Sport» and «Yoshlar» were particularly highlighted for increasing readers' interest.

During the meeting, it was stressed that speed, objectivity, and strict adherence to the law in delivering information are the key factors in strengthening public trust. Responsibilities were also assigned regarding the effective use of artificial intelligence technologies.

► **Safety on the roads****«JALOLIDDIN MANGUBERDI»: A JOURNEY IN THE SPIRIT OF NATIONAL SPEED**

At 7:00 a.m., one of the first departures of the modern train «Jaloliddin Manguberdi», operating on the «Tashkent–Khiva–Tashkent» route, began its journey. Wagon attendant Anvar G'afurov from «Temiryo'lexpres» JSC and captain Lazizjon Kamolov, senior inspector of the Passenger train monitoring battalion under the Ministry of internal affairs Transport and Tourism facilities security department, provided quality service to passengers and ensured safety on board.

According to captain Kamolov, the main goal is to ensure passengers' safety and peace of mind. This was also confirmed by foreign tourist Garcia Martinez, who praised the safe environment, high service standards, and modern trains in Uzbekistan, noting that they left a strong impression on him.

As a result of reforms implemented in «O'zbekiston temir yo'llari» JSC, the «Jaloliddin Manguberdi» train started operations on May 5. The 1,022-kilometer distance from Tashkent to Khiva, which previously took 14 hours, is now covered in 7.5 hours. The train passes through Samarkand, Bukhara, and Urgench, providing passengers with a fast, safe, and comfortable travel experience.

► **Investigation and reforms****THE EFFECTIVENESS OF A NEW INVESTIGATIVE PRACTICE**

Conducting criminal cases quickly, efficiently, and in strict compliance with the requirements of the law is one of today's key priorities. In this regard, on March 24, a joint resolution was adopted by the Prosecutor general of the Republic of Uzbekistan and the Minister of internal affairs titled «On introducing a new practice for setting procedural deadlines in completing criminal cases». Based on this document, the «Surkhandarya experience» is being implemented in practice.

According to the new approach, at the stage of

pre-investigation checks, all essential procedural actions are carried out, and materials are brought to a fully prepared state. This helps speed up the process of sending cases to court and reduces unnecessary burden on citizens.

The practice is aimed not only at speed but also at ensuring justice and quality. It contributes to expanding the institutions of «reconciliation» and «plea agreement».

The new system is also creating significant conve-

nience for citizens: unnecessary summons are being reduced, rights are being restored faster, and public trust in state bodies is increasing. At the same time, oversight of the investigative process is being strengthened, with special attention paid to the quality of each case.

In conclusion, the «Surkhandarya experience» serves to enhance human dignity by ensuring a balance between speed and justice.

► **School of courage****TWIN GUARDIANS**

From childhood, Hasan and Husan Sayfiddinov grew up admiring their father, Lieutenant colonel Shuhrat Adizov. They often argued over who would wear his service cap first and salute like a soldier. Their father would always remind them: «Wearing



the cap is easy, but deserving it is difficult». This advice has become their lifelong motto.

Today, the brothers serve in different units within the system. Hasan Sayfiddinov is a senior inspector-duty officer at the Organizational department of the Navoi regional DIA holding the rank of lieutenant. He is respected for his discipline and sense of responsibility. Husan Sayfiddinov serves as a supervisor at Correctional colony № 11 of the 5th regional department under the Penitentiary service of the Ministry of internal affairs.

Despite their striking resemblance, the twins sometimes cause amusing situations. On one occasion, they were mistaken for each other at their workplace.

Both brothers have been passionate about national wrestling since childhood and have participated in numerous competitions. Although they serve in different fields today, their goal remains the same – to follow the path of their father Shuhrat Adizov and their grandfather, retired captain Sayfiddin Adizov, by contributing to the safety and peace of the country.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

QADRIYATLAR USTUVOR BO'LSIN

O'zbekiston MMA assotsiatsiyasi rahbariyati tomonidan sportchilar o'rtasida tartib-intizom va sport etikasiga rioya etilishi yuzasidan tanqidiy yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda media sportchilarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati, sport etikasi hamda raqiblarga nisbatan hurmat tamoyillariga rioya etish masalalari muhokama qilindi.

Keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim sportchilar tomonidan raqiblarga nisbatan noo'rin va haqoratomuz so'zlar ishlatilishi holatlari kuzatilmoqda. Bu kabi xatti-harakatlar nafaqat sportchining shaxsiy obro'siga, balki u vakillik qilayotgan klub, jamoa hamda butun sport turining nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Assotsiatsiya raisi o'rinbosari o'z so'zida MMA nafaqat kuch va mahorat, balki yuqori madaniyat, intizom va hurmatni ham talab qiladigan sport turi ekanini alohida

MMA («aralash jang san'ati» yoki «aralash yakkakurash») turli jang sa'nati texnikalarini o'zida umumlashtirgan sport turi hisoblanadi. Boshqa jang san'atlaridan farqli o'laroq, MMAda jang qoidalari qo'l va oyoq zarbalari, kurash va og'ritish usullarini o'z ichiga oladi.

ta'kidladi. U sportchilarni ijtimoiy tarmoqlarda fikr bildirishda mas'uliyatli bo'lishga chaqirib, har qanday bahs-munozaralarda axloq me'yorlariga amal qilish zarurligini bildirdi.

Shuningdek, yig'ilishda sportchilarning omma oldidagi mas'uliyati haqida ham so'z yuritildi. Bugungi kunda ko'plab yoshlar mashhur sportchilarni o'ziga namuna sifatida qabul qilishi, raqibga nisbatan hurmatsiz munosabat yoki haqoratli chiqishlar esa ularda noto'g'ri tushunchalar shakllanishiga sabab bo'lishi mumkinligi aytiladi.

Mutasaddilarning ta'kidlashicha, haqiqiy sportchi nafaqat ring yoki oktagondagi g'alabasi, balki o'zining madaniyati, odobi va raqiblarga bo'lgan hurmati bilan ham namuna bo'lishi lozim. Sportning asosiy qadriyatlari ham aynan ana shu tamoyillarga tayanadi.

IIV «Jar» sport-sog'lomlashtirish kompleksi Axborot xizmati.

MMAda janglar odatda 3–5 raund orasida 1 daqiqa tanaffus bilan, har bir raund 5 daqiqa davom etadi. MMA atamasi ilk bor aralash sport turlari hakami, sobiq politsiya xodimi Jon Makkarti tomonidan qo'llangan.



BIRGALIKDA QO'LLAB-QUVVATLAYMIZ

Voleybol bo'yicha Tailandda bo'lib o'tayotgan U-18 Osiyo chempionatida O'zbekiston qizlar terma jamoasi ham ishtirok etmoqda. Guruh bosqichida Avstraliya va Mongoliya terma jamoalariga qarshi kechgan murosasiz bahslarda, afsuski, raqiblarimizning qo'li baland keldi.

Oldinda terma jamoamizni Tailandga qarshi yana bir muhim bahs kutmoqda.

Sportchilarimizga keyingi uchrashuvlarda omad va zafarlar tilaymiz! Birgalikda qo'llab-quvvatlaymiz!



«Voleybol» so'zi inglizcha so'z bo'lib, «to'pni urib qaytarmoq» degan ma'noni anglatadi. U 1895-yilda AQShning Massachusets shtatidagi Heliaks kollejining jismoniy tarbiya o'qituvchisi Vilyam Morgan tomonidan kashf etilgan.

Kashfiyotchi o'yinni rivojlantirish va ommalashtirish uchun ko'p mehnat qildi. Nihoyat, 1897-yilda u 10 qismdan iborat «Voleybol o'yini qoidalari»ni ishlab chiqdi. Shu tariqa, ushbu go'zal o'yin, avvalo, AQShning o'zida, ko'p o'tmay Amerika va Yevropa qit'alarida tarqaldi.

Voleybolchilarning aksariyati bitta o'yin davomida taxminan 250 marta sakraydi va 750 metr atrofida masofani yugurib o'tadi, shu sababli professional voleybolchilarning oyoq mushaklari juda yaxshi rivojlangan bo'ladi. Biroq voleybol boshqa mushaklarni ham mashq qildiradi. Bundan tashqari,



bu jamoaviy to'p o'yinlari ichida eng xavfsizi hisoblanadi, shu bois voleybolni juda ko'p havaskorlar o'yinaydi.



BU – QIZIQ!



Eng uzoq davom etgan tennis uchrashuvi 2010-yilgi Uimblدون turnirida Jon Izner va Nikolya Mayu o'rtasida bo'lib o'tgan. O'yin roppa-rosa 11 soat-u 5 daqiqa davom etgan.

Kosmosda o'ynalgan ilk sport turi golf hisoblanadi.

1971-yilda amerikalik astronaut Alan Shepard Oy yuzasida maxsus klyushka yordamida golf o'ynagan. U bor-yo'g'i ikkita koptokni urgan.

Olimpiya o'yinlarining eng yosh ishtirokchisi yunonistonlik Dimitrios Lundras hisoblanadi. U 1896-yilgi o'yin-

larda sport gimnastikasi bo'yicha qatnashganda bor-yo'g'i 10 yosh-u 218 kunlik bo'lgan va bronza medalini qo'lga kiritgan.

Eng tezkor zarba afsonaviy jangchi Bryus Li shu qadar tez harakat qilganki, uning 1 metr masofadan yo'llagan zarbasi tezligi 0,05 soniyani tashkil etgan. O'sha davrdagi videokameralar uning harakatlarini ilg'ay olmagan uchun, filmlarni montaj qilishda tasvirni ataylab sekinlashtirishgan.

Tennis to'plari nega tukli ekani haqida o'ylab ko'rganmiz? To'p havoda uchayotganda bu tuklar aerodinamik qarshilikni oshiradi va uning

haddan ziyod tez uchib, maydondan chiqib ketishining oldini oladi. Shuningdek, to'pning raketkaga tegish vaqtini uzaytirib, nazoratni osonlashtiradi.

Shaxmat — sportmi? Ha, shaxmat Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan sport turi sifatida tan olingan. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, grossmeysterlar katta turnirlarda o'tirgan joylarida kuchli fikrlash va stress natijasida kuniga 6000 kaloriyagacha energiya yo'qotishadi. Bu og'ir atletikachi yoki marafonchining kundalik energiya sarfi bilan teng.

Yangilanmagan rekord. Yengil atletika tarixidagi eng uzoq vaqtdan beri yangilan-

may kelayotgan rekordlardan birini amerikalik Maykl Pauell o'rnatgan. U 1991-yilda uzunlikka sakrash bo'yicha 895 santimetrlilik natijani qayd etgan va shu paytgacha undan uzoqqa sakragan sportchi topilmadi.

Eng uzoq davom etgan boks jangi 1893-yilda Endi Bouen va Jek Berk o'rtasida o'tkazilgan. Bu uchrashuv roppa-rosa 7 soat-u 19 daqiqa (jami 110 raund) davom etgan. Oxir-oqibat ikkala bokschi ham holdan toyib, mushtlasha olmay qolgani sababli hakam durang natijani e'lon qilgan.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

Xorij tajribasi

BALAI POLIS –

ISHONCHLI
IDORA

Malayziya Janubi-sharqiy Osiyodagi iqtisodiy va turistik jihatdan rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatning barqarorligi va jamoat xavfsizligini ta'minlashda Malayziya Qirollik politsiyasi (Royal Malaysia Police – PDRM) muhim o'rin tutadi. Ushbu huquqni muhofaza qiluvchi organ nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashish, balki mamlakat fuqarolari va mehmonlari xavfsizligini ta'minlashda ham katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan.

Malayziya politsiyasi tarixi XIX asrning boshlariga borib taqaladi. O'sha davrda mamlakat hududidagi ayrim sultonliklar o'z xavfsizlik tuzilmalarini tashkil etgan. Keyinchalik, Britaniya mustamlakachiligi davrida politsiya tizimi markazlashtirildi va zamonaviy ko'rinishga ega bo'la boshladi.

1957-yilda Malayziya mustaqillikka erishgach, politsiya milliy xavfsizlik tizimining asosiy ustunlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda PDRM mamlakat bo'ylab minglab xodimlarni birlashtirgan yirik idora hisoblanadi. Uning faoliyati mamlakat konstitutsiyasi va qonunlari asosida olib boriladi.

Malayziya politsiyasining asosiy vazifalari:

- ▶ jamoat tartibini saqlash;
- ▶ jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etish;
- ▶ terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish;
- ▶ chegara xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashish;

▶ yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash;

▶ kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish.

So'nggi yillarda internet orqali sodir etiladigan firibgarlik holatlari ko'paygani sababli, politsiya kiberxavfsizlik sohasiga alohida e'tibor qaratmoqda.

Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar

Malayziya politsiyasi o'z faoliyatida raqamli texnologiyalardan keng foydalanadi. Yirik shaharlarda yuzlab kuzatuv kameralari o'rnatilgan bo'lib, ular huquqbuzarliklarni tezkor aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, politsiya maxsus ma'lumotlar bazasi, raqamli tahlil dasturlari va intellektual kuzatuv tizimlaridan foydalanadi. Bu jinoyatlarni tergov qilish jarayonini ancha samarali qiladi.

Malayziyada ayrim politsiya bo'linmalari dronlardan ham foydalanadi.

Ular ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy ofatlar oqibatini baholashda qo'l keladi.

Xorijlik mehmonlar himoyasi

Malayziya har yili millionlab turistlarni qabul qiladi. Shu sababli politsiyaning muhim vazifalaridan biri sayyohlar xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi.

Kuala-Lumpur, Penang va Langkavi kabi turistik hududlarda maxsus turistik politsiya bo'linmalari xizmat qiladi. Ularning ayrim xodimlari bir nechta xorijiy tillarni biladi va chet ellik mehmonlarga zarur yordam ko'rsatadi. Turistlar politsiyaga murojaat qilish uchun maxsus ishonch telefonlari va onlayn platformalardan ham foydalanishlari mumkin.

Maxsus bo'linmalar va «Balai Polis» tizimi

Malayziya politsiyasi tarkibida bir qator maxsus bo'linmalar mavjud. Ular orasida terrorizmga qarshi

kurashuvchi elita guruhlar, dengiz politsiyasi, aviatsiya bo'linmalari va kriminalistika markazlari bor. Ayniqsa, maxsus operatsiyalar guruhlari yuqori xavfli operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha mintaqadagi eng yaxshi tayyorgarlik bo'linmalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Malayziya politsiyasining eng kichik idorasi «Balai polis» hisoblanadi. U Qirollik politsiyasining eng quyi hududiy bo'g'ini bo'lib, tuman politsiya boshqarmalari tarkibida faoliyat yuritadi.

Transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida Malayziya politsiyasi Interpol va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Narkotik moddalar noqonuniy savdosi, odam savdosi va kiberjinoyatlarga qarshi operatsiyalarda xalqaro ma'lumot almashinuvi muhim ahamiyatga ega.

Internet materiallari asosida Abdurahmon MUSTAFOQULOV tayyorladi.

IIV Birlashgan tahririyati tomonidan e'lon qilingan «Vatan – muqaddas, uni himoya qilish muqaddas burch!» ijodiy tanlovi bo'yicha g'oliblar aniqlandi.

Birinchi o'rin: Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.Vosiqova nomidagi akademik litsey katta o'qituvchisi **Oybonu To'xtasinova**.

Ikkinchi o'rin: Andijon viloyati Marhamat tumanida yashovchi **Muqimjon Nurboyev** va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi **Hulkar Abdullayeva**.

Uchinchi o'rin: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi **O'rol Boyqobilov**, jurnalist **Zulfiya Yunusova** hamda IIV TvaTOXTD

TANLOV YAKUNLANDI



axborot guruhi bosh mutaxassisi, mayor **Azamat Ahmetov**.

Rag'batlantiruvchi mukofot: IIV T va TOXTD MXTB safdor xodimi, safdor **Dilafruz Oblaqulova** hamda Farg'ona shahridagi 18-maktabning 9-sinf o'quvchisi **Farzona Hoshimova**.

Tanlov g'oliblarining mukofotlari Birlashgan tahririyat mas'ullari tomonidan egalariga yetkaziladi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun quyidagi telefon raqamlari orqali bog'lanish mumkin:

(93) 577-43-92,
(90) 962-74-12.

IIV Birlashgan tahririyati.





— **Abduhoshim aka, davlatimiz rahbari madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvda milliy madaniyatimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, xususan, o'zbek milliy musiqa san'ati va maqom merosini asrab-avaylash hamda zamon talablari asosida boyitish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi. Unda ilgari surilgan tashabbus va vazifalarga munosabatingiz haqida so'zlab bersangiz.**

— Uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslar, ayniqsa, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, yosh iste'dodlarni kashf etish va tarbiyalashga qaratilgan yangi tizim zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi. Shuningdek, madaniyat va san'at ahlining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga oid qarorlar ham soha vakillari uchun muhim rag'bat hisoblanadi.

Shaxsan men uchun ushbu uchrashuv katta ishonch va mas'uliyat manbayi bo'ldi. Xususan, mamlakatimizda g'ijjakchilar uyushmasini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi va bu ezgu maqsadni amalga oshirish uchun homiy ham birlashtirildi. Ayni paytda ana shu loyiha ustida qizg'in ish olib bormoqdamiz. Asosiy maqsadimiz — g'ijjak ijrochilik san'atini yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularni birlashtirgan mustahkam ijodiy muhitni shakllantirishdir.

Yana bir orzuim — Mus-taqillik bayrami arafasida 200 nafar g'ijjakchi ishtirokida yirik konsert dasturini tashkil etish. Keyinchalik esa ushbu jamoani xalqaro sahnalarga olib chiqib, milliy musiqa san'atimizni, g'ijjak ijrochilik an'analarimizni keng targ'ib qilish niyatimiz bor.

— **Dunyo kezgan, ko'plab sahnalarda chiqish qilgan san'atkorsiz. O'zbek san'atini xorijliklar qanday qabul qiladi?**

— Bizning musiqamizdan bir marta bahramand bo'lgan xorijliklar unga umrbod muxlis bo'lib qoladi, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Bir misol keltiray, «Cho'li Iroq» juda og'ir, murakkab va ta'sirchan kuy. Uni hatto o'zimiz ham qayta-qayta tinglayvermaymiz. Ammo ajablanarlisi shundaki, xorijlik tinglovchilar ushbu kuyni katta olqishlar bilan yana va yana ijro etishimni so'rashgan. Qaysi mamlakatda bo'lmayin, asosan mumtoz musiqamizni ijro etaman.

— **Demak, musiqamizning chegarasi yo'q?**

— Albatta. Faqat uni mukammal ijro etish va tinglovchiga to'g'ri yetkaza bilish kerak. Uni turk, eron, afg'on yoki hind musiqasiga xos ohanglar bilan bezash shart emas. Milliy kuy-larimiz o'zining tabiiy holatida ham zamon ruhiga moslashishi mumkin. Masalan, men «Cho'li Iroq»ning usul va pardalarini sayqallab, zamonaviy talqinda ijro etdim. Bunda 17 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan tinglovchilarni nazarda tutdim. Natijada yoshlar ham, kattalar ham bu kuyni qiziqish bilan tinglay boshladi. Katta yoshdagilar undagi ma'no va ruhiyatni his qilsa, yoshlar jozibador ritmiga maftun bo'ladi.

Musiqaga avaylab parvarish berish, uning asl mohiyatini saqlagan holda, zamonga mos tarzda yangilab berish zarur. Axir, hatto jonsiz bir me'moriy obida ham yuz yil o'tgach ta'mirlanadi. Musiqqa esa jonli san'at. Uni chiroyli va yuksak mahorat bilan ijro etsangiz,

Siz kutgan uchrashuv

Musiqiy merosimizning nodir durdonalarini keng jamoatchilikka yetkazish, maqom san'ati an'analarini davom ettirish va boyitish yo'lida samarali faoliyat yuritib kelayotgan ustoz san'atkor, Yunus Rajabiy nomidagi Maqomchilar ansambli badiiy rahbari, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov bilan milliy musiqa, maqom san'atining bugungi rivoji va o'z ijodiy faoliyati haqida suhbatlashdik.

SOZ YIG'LASA, YURAK GAPIRADI

dunyo ham san'atingizga tan beradi.

— **Ustozlaringiz haqida ham to'xtalsangiz...**

— Birinchi ustozlarim onam va buvam bo'lgan. Buvam, rahmatli Usta Jumarasulxo'ja 103 yoshda olamdan o'tgan. San'atni chuqur tushungan, maqomlarni yoddan bilgan, g'ijjak, chang, nay va doirani mahorat bilan chalgan inson edi. Buvamning 11 nafar farzandi bo'lgan, ularning barchasi san'atga mehr qo'ygan, musiqa muhitida ulg'aygan.

Buvam shogirdlariga dars berayotgan paytlarida qizi, ya'ni, onam hovli supurib yurib ham quloqlariga chalingan

— 1972-yili talabalik paytim «Marhabo, talantlar!» ko'rik-tanlovida qatnash-ganimda, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ikromjon Bo'ronov mening ijromni eshitib, Farg'onaga qidirib boradi va ustozim Musojon Karimov orqali meni topadi.

O'sha yillari Ichki ishlar vazirligining Ichki qo'shinlari tarkibida general-leytenant Burxon Sirojiddinov tashabbusi bilan harbiy ashula va raqs ansambli tashkil etilgan edi. Aytish mumkinki, bu Markaziy Osiyoda harbiy qism qoshida tuzilgan ilk ijodiy jamoa bo'lgan. Ansambлга O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist

— Ular maqom an'analaridan oziqlangan. «Dilxiroj», «Munajat» kabi asarlarni eshitganda odamlar hanuz qalban uyg'onadi. Sababi — ular zamirida maqom ruhi bor. Bugun esa ayrim estrada qo'shiqlari qisqa umr ko'radi. Chunki ular ko'pincha boshqa xalqlar musiqa uslublaridan tayyor shaklda olinadi. Agar ijodkor maqom pardalarini chuqur bilganida, asarlarining umri ham uzoq bo'lardi. Boshqa millat musiqasini o'rganish kerak, lekin uni o'zimiznikidan ustun qo'ymasligimiz lozim.

— **Ichki ishlar organlari xodimlari haqida qanday fikrdasiz, ularning**



kuy va ohanglarni yodlab olar ekan. San'atga bo'lgan mehr, musiqani his qilish qobiliyati onamga ana shu muhitdan o'tgan bo'lsa kerak.

Farg'ona musiqa bilim yurtida o'qigan yillarimda Muhammadiso Dadajonov va Muxtorjon Karimovdan ta'lim oldim. Keyinchalik sozandalik san'atida barchani maftun etgan O'zbekiston xalq artisti G'ulomjon Hojiqulovdan ko'p narsa o'rgandim. Konservatoriyada esa menga Faxriddin Sodiqov va Mahmudjon Muhamedov ustozlik qildi. Radio-da ish boshlaganimdan keyin maqom ilmining allomasi Yunus Rajabiydan ham saboq olish nasib etdi.

— **Sizning Ichki ishlar vazirligi faxriysi, iste'fodagi podpolkovnik ekaningizni hamma ham bilmasa kerak...**

Ikromjon Bo'ronov badiiy rahbar etib tayinlangan.

Men harbiy xizmatni ana shu ansambl safida o'tadim. Hech qanday qo'shimcha tanlov yoki komissiyasiz ansambлга qabul qilinib, musiqiy rahbarlik vazifasi ham ishonib topshirildi. Ijodiy faoliyatimning yangi bosqichi ham aynan shu yerda boshlangan. Ilk professional qo'shiqlarimni yaratish, bastakorlikka jiddiy yondashishimda Ikromjon Bo'ronovning hissasi beqiyos. Ustoz uchun ham bir qator qo'shiqlar bastalaganman.

Ikromjon aka nafaqat san'atkor, balki haqiqiy murabbiy edi. Menga o'xshagan o'nlab yosh askarlarni asrab-avaylar, ijod qilishimiz uchun barcha sharoitni yaratib berar, mehr va g'amxo'rlik bilan tarbiyalardi.

— **Nima uchun qadim qo'shiqlarimiz uzoq yashaydi?**

faoliyatidan ko'nglingiz to'ladimi?

— Ichki ishlar organlari xodimlarining mehnatini doimo yuqori baholab kelaman. Bu sohada xizmat qilayotgan ko'plab tanishlarim, shogirdlarim bor. Ularning kasbi sharaflari bo'lishi bilan birga, nihoyatda mas'uliyatli va mashaqqatli hamdir. Ayniqsa, hozir yozning jazirama kunlarida ko'chada soatlab xizmat qilish, yo'l harakatini tartibga solish, odamlar xavfsizligini ta'minlash oson emas.

Osoyishtalik posbonlari kecha-yu kunduz Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligini o'ylab xizmat qilishadi. Bugun yurtimizda tinch va osoyishta tong otishiga munosib hissa qo'shayotgan barcha xodimlarga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Adolat FAYZIYEVA suhbatlashdi.



Jinoyatga jazo muqarrar



QONLI QO'LLAR QISSASI

Jobir (ismlar o'zgartirildi) va Vasila bir o'g'il, bir qizni tarbiyalab voyaga yetkazishdi. Avvaliga bu oila ham boshqalar qatori baxtli va ahil yashardi. Biroq Jobirning ichkilikbozlikka ruju qo'yishi bilan xonadondan fayz, dasturxondan baraka, oiladan tinchlik ketdi. Mastlik uni tajovuzkor va shafqatsiz insonga aylantirardi. Arzimas bahonalar bilan janjal ko'tarib, turmush o'rtog'ini ayovsiz kaltaklar, bolalariga esa dag'dag'a va haqoratlar bilan azob berardi.

Xalil otasiga qarshi borishga jur'at etolmas, ko'p hollarda mushtipar onasini himoya qilishga ojiz qolardi. Yillar davomidagi zo'ravonlik, haqorat, ruhiy bosim va tazyiqlar oqibatida Vasilaning salomatligi izdan chiqdi. Eng achinarlisi, ruhiy kasalliklar dispanseri nazoratiga olindi, II guruh nogironi bo'lib qoldi. Shunga qaramay, u biror marta turmush o'rtog'idan shikoyat qilib, mas'ul idoralar eshigini qoqmad. Qo'ni-qo'shnilar bu xonadonda tinchlik yo'qligini yaxshi bilishardi. Mahalla faollari ham vaqti-vaqti bilan holidan xabar olib turishardi. Ammo Vasila hech kimga dardini to'kib solmasdi. «Oila siri tashqariga chiqmasligi kerak» degan aqida bilan barcha iztiroblarini ichiga yutib yashardi.

Ichkilikka qaramlik Jobirning hayotini butkul izdan chiqardi. Oqibatda na mehnat qilishga, na oilasi oldidagi majburiyatlarni bajarishga qodir bo'lmay qoldi. Bunday paytda mahalla ahli imkon qadar yordam qo'lini cho'zib, oilani moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga harakat qildi. Vasila «Ayollar daftari»ga, Xalil esa «Yoshlar daftari»ga kiritilib, uning bir oylik harbiy xizmat badali ham to'lab berildi. Jobir esa narkologiya dispanseri ro'yxatiga olindi.

Biroq bu vaqtga kelib oila munosabatlaridagi yoriqlar ancha chuqurlashgan, farzandlar otasidan butunlay sovigan, ona esa yillar davomidagi azob-uqubatlardan ruhan va jismonan toliqib qolgan

Poytaxtning Uchtepa tumanidagi «Tepaqo'rg'on» mahallasi-da sodir etilgan jinoyat ishi materiallari bilan tanisharkansiz, mazkur qilmishdan ko'ra, uning ortida turgan og'ir hayotiy sharoitlar, murakkab munosabatlar va yechilmay qolgan muammolar haqida ko'proq mulohaza yuritassiz.

edi. O'sha mudhish kunda ham fojiga olib kelgan zanjirning birinchi halqasi yana o'sha ichkilik bo'ldi.

Oila a'zolari – Vasila, Xalil va qizi Ma'rifat kechki ovqat ustida o'tirgan paytda Jobir qattiq mast holda uyga kirib keldi. U yana odatdagidek turmush o'rtog'ini haqoratli so'zlar bilan tahqirlay boshladi. Bu safar qizi Ma'rifat ham uning haqoratlaridan chetda qolmadi. Xalil esa tishini tishiga qo'yib jim turdi. U onasining ahvoli-ni, uning allaqachon izdan chiqqan sog'lig'ini o'ylardi.

Jobirning jahli bosilmadi. U xonasiga kirib, baland ovozda musiqa qo'ydi. Baralla yangrayotgan musiqa Vasilaning bosh og'rig'ini yanada kuchaytirdi. Ayol shovqiniga chidolmay, boshini changallab oldi. Bu holatni ko'rgan Xalil ortiq sukut saqlay olmadi. U otasining oldiga kirib, musiqani pastroq qo'yishini, ko'p qavatli uyda bunday shovqin qo'shnilariga ham noqulaylik tug'dirishini tushuntirishga urindi. Ammo Jobir gapga quloq solmadi. Aksincha, bo'g'i va xirildoq ovozda musiqaga jo'r bo'lib qo'shiq ayta boshladi.

Alam va asabiylik ta'sirida Xalil kolonkani yerga urib sindirdi. Bu esa otaning g'azabini battar kuchaytirdi. Jobir o'g'lini yerga yiqitib, ayovsiz do'pposlay boshladi.

Xalil, qanchalik azob chekmasin, otasiga qarshi qo'l ko'tarishga jur'at etmas, uni o'zidan itarib, changalidan chiqishga harakat qilardi. Biroq o'sha kuni voqealar butunlay boshqacha tus oldi. Jobir o'rnidan shart turib, ilgichda turgan xonadon kalitini oldi va: «Ustingizdan qulflab ketaman! Qani, keyin qaysi biringiz tashqariga chiqarkansiz!» deya tahdid qildi.

Xalil otasini bu ishdan qaytarishga urindi. G'azabdan ko'zi qonga to'lgan Jobir uni yana qattiq itarib yubordi. Shunda Xalil oshxonaga o'tib, pichoq olib chiqdi. U o'sha lahzada o'zini boshqara olmadi. Qo'lidagi pichoq bilan otasining qorin qismiga sanchib oldi. Bunday holatni kutmagan Jobir qornini changallaganicha yerga o'tirib qoldi. Faqat shundagina Xalil sodir bo'lgan voqeaning dahshatini angladi. Otasining qornidan oqib chiqayotgan qonni ko'rgach, sarosimaga tushdi. Otasini quchoqlab yig'ladi. Jarohatga paxta bosdi, bint bilan bog'lashga urindi. Darhol tez tibbiy yordam xizmatiga qo'ng'iroq qildi, ammo Jobirning hayotini saqlab qolishning iloji bo'lmadi...

Sud Xalilning qilmishini sbaholarkan, jinoyat sodir etilgan vaziyatni, yillar davomida davom etgan oilaviy zo'ravonlik va ruhiy tazyiqlarni inobatga oldi. Qonun unga nisbatan yengilroq jazo qo'lladi. Biroq hayotda shunday hukmlar borki, ularni na sud bekor qila oladi, na vaqt yengillashtira oladi.

Qissadan hissa shuki, oiladagi zo'ravonlik, ichkilikbozlik va sukut bilan yashirib kelingan muammolar bir kuni fojiga aylanishi mumkin. Fojianing oldini olish esa uning oqibatlarini muhokama qilishdan ko'ra muhimroqdir.

Bobur RAHIMOV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Uchtepa tuman sudi sudyasi.
Adolat G'AYRAT qizi,
jurnalist.

Toshkent shahri.

Bir ibora izohi

GAPNING
BELIGA TEPDI

«Gapning beliga tepdi» iborasi o'zbek tilida quyidagi ma'nolarni anglatadi:

Gapni bo'lish: kishi gapirayotganda, uning gapini keskin to'xtatish yoki gap orasiga noo'rin suqilib kirish.

Mavzuni buzish, o'zgartirish: asosiy mavzudan chetlashib, gapning mazmunini buzish yoki uni tugatmasdan boshqa yoqqa burib yuborish.

Ishni to'xtatish: o'rinsiz gap yoki harakat bilan biror rejaning, suhbatning yoki ishning davomiga xalaqit berish (ishning beliga tepdi).

Bu ibora birgina gapning yoki ishning beliga tepdi bilan cheklanmaydi. «Uyquning beliga tepdi», «o'yinning beliga tepdi», «kinoning beliga tepdi», «bazzoning beliga tepdi» va hokazo qiyoslashlar so'zlashuvda juda ko'p uchraydi.

Aslida bel – bu odam tanasida ingichka tortib, gavgani ust va ost qismlarga ayirib turadigan joyi. Tog'-adirlardagi oshuv, o'tkal, dovon ma'nosidagi bel ifodasi ham shundan.

Qoraqalpog'istonlik tadqiqotchi Hayitboy Abdusodiqov «Bu azaliy dehqonlar qavmida (eslatib o'taman, Ovestoga ko'ra, qohinlar o'ti Xorazm (Mizdakxon)ga o'rnatiladi, jangchilar o'ti Ozarbayjonga, dehqonlar o'ti Xurosonga yuboriladi) hatto bel, o'roq, ketmon siyoqli anjomlarni ifodalaydigan atamalar ham bo'lmagan, bo'lsa ham unutilgan. Bizning lug'atimiz tuzuvchilari bel (o'rischa lopatka, turkiy kurak so'zidan kalka) so'zini forsiy deydi, lekin etimologiyasini keltirmaydi. Aslida bel – bu turkiyda kurak ataluvchi moslamaning aniqlovchi old qo'shimchalarining biri xolos, ayni qor kurak, don kurak, kapcha kurak, qo'l kurak, ishtik kurak, otash kurak, temir kurak, yog'och kurak va hokazolarga o'xshash» deya izohlaydi.

Mazkur izohning asosli jihati shundaki, biz ba'zan boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni qo'shimcha, ya'ni takror holda aytishga o'rganib qolganmiz. Masalan, o'rta so'zimiz forsiyda miyona, biz uni o'rtamiyona deymiz. Yoki bola so'zi yoniga chag'a so'zini qo'shib, bola-chag'alar yaxshimi, deb so'rashamiz. Vaholanki, chag'a turkman tilida bola ma'nosini beradi. Shu boisdan bo'lsa kerak, kurakni qo'lkurak deb aytganimiz kabi, ba'zan uni belkurak deb ham aytamiz.

Shuhrat RO'ZIYEV
tayyorladi.



ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA: ROHATI VA AZOBI

Bugun texnika va texnologiya kun sayin rivojlanib bormoqda. Buning yaxshi jihatlari, afzalliklari juda ko'p. Sababi, ularning aksariyati odamlar og'irini yengil qiladi, farovon yashashini ta'minlaydi. Agar ulardan to'g'ri foydalanmasak, turli ko'ngilsizliklar ham kelib chiqishi mumkin.



Yo'llarda eng ko'p xatoga yo'l qo'yadiganlar piyodalar, desak, xato bo'lmas. Belgilangan-belgilanmagan yo'llardan quloqchin taqib yoki qo'lidagi telefondan ko'z uzmasdan o'tishadi. Mazkur holatda avtomobildan kelayotgan tovush signali eshitilmaydi.

Haydovchilarining svetofordagi harakatlanish oldidan bir-biriga to'xtovsiz signal chalishi, salondagi musiqa ovozini me'yoridan ortiq balandlatishi, avtomobilga qo'shimcha jihoz qo'yib boshqa fuqarolarning asabiga tegishi, transport vositasini yuvmasdan shahar ko'chalarida harakatlanishi va boshqa shu kabi holatlarga tez-tez duch

kelamiz. Bundan tashqari, transport vositalarining bir-biriga yo'l bermasligi, qoidalarga amal qilmasdan quvib o'tishi, oraliq

masofani saqlamasligi, svetofor ishoralariga bo'ysunmasligi, avariya holatlarini yuzaga keltirishi, belgilanmagan joylarda to'xtashi, piyodalarga yo'l bermasligi va hokazo vaziyatlarda haydovchilarning ayrim kamchiliklariga guvoh bo'lamiz.

Yana bir jihatga e'tiborini qaratmoqchiman. Keyingi 4-5 yilda hayotimizda qulay va arzon skuterlar paydo bo'ldi. Lekin u ovoz-siz va juda tez harakatlanadi, shu nuqtayi nazardan, piyodalar uchun ancha xavfli. Yana bir tomoni, undan foydalangan shaxs-

lar skuterni belgilangan, xavfsiz joyga emas, istagan joyida qoldirib ketayotgani. Tashlab ketilgan skuterlar xoh piyodalar yo'lagi, xoh avtomobil yo'li bo'lsin, baribir harakatlanishga xalaqit beradi. Ayniqsa, ayrim «yetkazib berish xizmati»da ishlayotganlardan ehtiyot bo'lish lozim. Ular vaqtdan yutish uchun tez va joyi kelganda, qarama-qarshi tomondan ham harakatlanib ketaveradi.

Xullas, xoh piyoda, xoh avtomobilda yoki boshqa transport vositasida bo'lamizmi – bundan qat'i nazar – yo'l harakati qoidalarga qat'iy amal qilishimiz lozim. Bu siz-u bizning hayotimiz, salomatligimiz bilan chambarchas bog'liq. Shunday ekan, har birimiz o'zimiz va o'zgarayotgan hayotiga befarq bo'lmaylik.

Qo'chqor

UBAYDULLOYEV

Samarqand viloyati.



Ibrat



SIR

Forishning so'lim tog'li qishlog'i – Uxumga ijodiy safar davomida ajoyib bir voqeaga duch keldik.

Yarim asrdan ziyod birga hayot kechirgan, bir yostiqa bosh qo'yib qo'sha qarigan yetmish besh yoshli otaxon va onaxon xonadonida mehmon bo'lib, ularning shukronalik va baxt balqib turgan chehralarini tasvirga muhrlamoqchi bo'ldik. Darhol hamma narsa hozirlandi: dasturxon yozilib, issiq non, choynak-piyola

va bir taqsimcha uzum keltirildi. Rejamizga ko'ra, onaxon piyolani umr yo'ldoshiga uzatishi, ayni shu lahzada ularning nigohlari to'qnashib, baxt haqida so'zsiz hikoya qilishi lozim edi.

Onaxon choy quyib, otaxonga uzatdi, ammo... uning ko'zlariga tik qaray olmadi. Fotomuxbimiz onaxonga ko'rsatma bera bosh-

ladi. Jarayon takrorlandi: qo'l havoda uzatilgan qoldi, nigoh esa hamon yerda. Bu holatni kuzatib, hammamiz kulib yubordik. Otaxon biroz noo'ng'ay vaziyatga tushib, kampirini asta koyigan bo'ldi: «Bo'laqol, nega uyalasan? O'n sakkiz yashar qizmidig? Tezroq bo'l, mehmonlarni kuttirib qo'ydik...»

Biroq baribir onaxonni ellik besh yillik umr yo'ldoshining ko'zlariga qarata olmadik. Oxiri oramizdan bir kishi otaxonning yon tomoniga o'tib, onaxonning nigohi qaratilishi kerak bo'lgan balandlikda turib berdi. Shu tariqa, intizorlik bilan kutilgan surat nihoyat tayyor bo'ldi.

Ortga qaytayotganimizda hammamiz nuroniy onaxonning ushbu go'zal holati haqida o'ylab ketdik. Uxum turizm qishlog'iga aylanganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Maftunkor tabiati, mag'rur tog'lari va sharqirab oqadigan Uxumsoy sabab bu yerdan sayyohlar qadami uzilmaydi. Ular shaharning shovqini-yu tutunidan qochib, tunlari

chigirtka chirillaydigan, tonglari kaklik xonishi bilan boshlanadigan sokinlikni izlab keladilar.

Lekin, menimcha, sayyohlarni bu yerga faqatgina tabiat go'zalligi emas, balki qiymati yo'q bir boylik chorlaydi. Bu – bugungi kunda ko'p joylarda asta-sekin kamyob bo'lib borayotgan samimiyat, hayo, sadoqat va chin muhabbatdir. Chunki ellik besh yil birga yashab, hali-hamon turmush o'rtog'ining ko'ziga tik qarashdan uyalish – shunchaki oddiy hol emas. Biz fotokamera obyektiviga baxtni muhrlamoqchi edik. Ammo o'sha kuni baxtning o'zidan ham nozikroq va teranroq ko'rinishiga – yarim asrdan oshgan muhabbatning hayo bilan birga yashab kelayotgan betakror jozibasiga guvoh bo'ldik.

O'sha kuni men sayyohlarni bu yerga ohanrabodek tortadigan asosiy sir nima ekanini angladim.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

YOZ JAZIRAMASI:

sog'lig'ingizni xavfqa qo'ymang

Salomatlik sahifasi

Issiq ob-havo sharoitida inson nafaqat oftob urishidan himoyalaniishi, balki dasturxondagi ne'matlar sifatli, tabiiy va foydali bo'lishiga ham ahamiyat qaratishi lozim. Ayniqsa, xarid qilinayotgan mahsulotlarning amal qilish muddati va saqlanish sharoitlariga e'tibor qaratish muhim. Yoz oylarida salomatlikka zarar yetkazmaslik va jazirama issiqning organizmga salbiy ta'siridan saqlanish uchun Toshkent shahar IIBB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi boshlig'i o'rinbosari, shifokor, podpolkovnik Ilhom Tojiboyevning quyidagi tavsiyalariga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Tana suvsizlanishiga yo'l qo'ymang.

Kun davomida me'yorida suyuqlik ichmaslik va issiq harorat ta'sirida ko'p terlash oqibatida organizmda salbiy o'zgarishlar, jumladan, qon bosimi ko'tarilishi, holsizlik, bosh og'rig'i, qon quyuglashishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Shu bois kuniga kamida 2-2,5 litr suyuqlik ichishni odat qiling. Qahva, shirin gazlangan



Taomnomani yengillashtiring.

Issiq kunlarda hazm tizimi ortiqcha zo'riqishsiz ishlashi kerak. Yog'li, achchiq, qovurilgan va xamirli taomlar tana qizishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, bu mavsumda shirinliklar, sho'r mahsulotlar, mayonezli salatlar imkon qadar kam iste'mol qilish, kolbasa va konserva mahsulotlari, yarimtayyor yeguliklardan voz kechish tavsiya etiladi. Chunki ular chanqoqni kuchaytiradi, yurak-qon tomir tizimi, oshqozon-ichak faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'g'ri ovqatlanish. Jazirama kunlari ishtaha pasayishi tabiiy hol. Bunday paytlarda kishi o'zini ovqatlanishga majburlamay, kam-kam va tez-tez ovqatlanishga odatlanishi kerak.

Ba'zilar ishtaha yo'qligi bois faqat suyuqlik ichib yuradi, bu esa tana quvvati kamayishiga olib keladi.

Issiq kunlarda odam ko'p terlashi hisobiga nafas olish, ovqat hazm qilish kabi fiziologik jarayonlarga ko'proq energiya sarflanadi, shuningdek, ter bilan birga tanadan zarur vitamin va mikroelementlar ham chiqib ketadi. Shu bois organizmni ham suv, ham kerakli vitaminlar va foydali

hammasi ham tabiiy emas. Shu bois ular organizmga zarar keltirishi mumkin. Ba'zan dasturxonimizdan o'rin egallaydigan kolbasa va konserva mahsulotlari ham bundan mustasno emas. Ular yuqori miqdordagi tuz, konservantlar, sirka kislotasi, shakar, ta'm beruvchi va quyuglashtiruvchi qo'shimchalar, Ye kodli moddalar evaziga shirin maza va yoqimli hidga ega bo'ladi. Bularning bari, o'z o'rnida, yurak va onkologik ka-



salliklarining yuzaga kelishi, diabet xastaligining rivojlanishi, allergiya paydo bo'lishi, ichki sekresiya bezlari faoliyati hamda modda almashinuvi-ning buzilishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, **yozda ovqatdan zaharlanish xavfi ortadi.** Ko'chada, ochiq havoda qolgan taomlarni va sifati kafolatlanmagan mahsulotlarni tanovul qilishdan saqlan-ning. Oila a'zolarining salomatligini saqlash uchun barcha yegulik va ichimliklarni uy sharoitida, tarkibini bilib-ko'rib tayyorlash va iste'mol qilish maqsadga muvofiqdir.

Gulchehra AZIMOVA
tayyorladi.



ichimliklar va qadoqdagi sharbatlar iste'molini kamaytirgan ma'qul.

Suyuqlikni aslo muzdek holda ichmang, bu tomoq og'rig'iga sabab bo'lishi, tana haroratini keskin tushirib, organizmni stressga solishi mumkin. Yaxshisi, iliq va xona haroratidagi suv, meva kompoti, foydali o'tlar damlamasi, limonli, yalpizli yoki ko'k choy tayyorlab, iste'mol qilgan ma'qul. Quritilgan mevalar yoki na'matak solib damlangan ichimlik ham sovuq holda yaxshi chanqovbosdi xususiyatga ega.

O'TGANLARNING OXIRATI OBOD BO'LSIN

IIV rahbariyati, shaxsiy tarkibi va Faxriylar kengashi vazirlik Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti boshlig'i o'rinbosari, polkovnik To'lqinboy Jumanovga validayi muhtaramasi
Zarxol ayaning
vafoti munosabati bilan hammadlik bildiradi.

IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati Faxriylar kengashi Toshkent shahar IIBB YHXB faxriysi, iste'fodagi mayor
Anvar Hojimatovning
vafoti munosabati bilan uning oila a'zolariga va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Mutolaa

USTUN

Sochimni oldirib keldim. Tap-taqir boshimga razm solib otam xo'rsindi.

- Ketyapman, degin.
- Ketyapman, ota.
- Qayergaligi ma'lum bo'ldimi?
- Ma'lum. Afg'onga deyishayapti. Yana... kim bilsin?

– Sovuq xabarning yolg'oni bo'lmaydi. Demak, urushga ketyapsan...

Otam boshini sarak-sarak qildi. Og'ir uh tortdi – o'pka-jigari uzilib ketganday ihradi: «Hoy bola-ya, hoy bola...». Ichidan bir ihroq otildi. Ustunga suyanib, menga tosh qotib termulib turdi.



– Otamni urush o'ldirganini bilasan-a, – dedi nihoyat. – Uch yoshimda yetim qoldim. Otam meni yetim qildi. Lekin, sen meni yetim qilma, bolam... – Otam o'pkasi to'lib o'kirib yig'lab yubordi.

Oyoq-qo'lim bo'shshib, sillam qurib supaga o'tirib qoldim.

Nazarimda, shu ustun bo'lmaganda otam qulab tushardi. Nazarimda, shu ustun otamning boshidagi osmonni ham suyab turardi.

Urushga ketdim. O't-olov, o'q ichida sargardon kezarimda quloqlarim

ostida bir yalinch jaranglab turdi: «...Sen meni yetim qilma, bolam!...» Gospitalda tig' ostida yotganimda o'sha iltijo jarangladi: «Sen meni yetim qilma, bolam...»

Dahshatli janglar oldidan Parvardigorga yalindim: «Ey, Xudo, o'zing asra, men o'lmayin, otam yetim qolmasin...»

Men qaytdim. Men bir urushni ko'rdim. Otam ikki urushni – men va otasi tufayli ikki urushni ko'rdi. To'g'ri, urushning katta-kichigi bo'lmaydi. Faqat bir narsa taskin beradi: «Mening urushim» otamni yetim qilmadi.

Xudoga shukur, otajonim hayot! Umri uzoq bo'lsin, sakson yoshga qarab yuryapti. Hovlimiz o'rtasida o'sha ustun hali ham turibdi. Yaqinda men ustun atrofiga to'rtburchak qilib odam beli barobarida marmar devor tortdim. Men bu ishni endi hech kim ustunga suyanmasin degan o'y bilan qildim. Chunki ustunni ag'darib tashlashga jur'atim yetmadi. Chunki u og'ir kunda otamni suyagan edi, men otamga ustun bo'lolmagan kez ustun otamga bir o'g'ilday suyanch bo'lgan edi.

ETIKCHALAR

Bu urushda etikchalar egasiz qoldi.

Ayol etikchalarni xona burchagiga olib borib qo'ydi.

– Qani, o'girilib tur, – deya etikchalar tumshug'ini devorga taqadi.

Egasiz etikchalar devor burchida chorak soat turdi.

Ayolning rahmi keldi:

– Boshqa to'polon qilmagin-a, xo'pmi?!

U etikchalarni ko'ksiga bosdi. So'ng stulchaga olib kelib qo'ydi:

– Qani, endi ovqatingni yeb oll..

Ayol etikchalarga uzoq tikilib turdi. Nimadir yodiga tushganday bo'ldi. So'ng... so'ng... chinqirib yig'lab yubordi.

Etikchalar sohibasi bor-yo'g'i olti yoshda edi.



Qo'chqor NORQOBIL



URUSHNING SURATI

Yolg'iz – yolg'iz o'g'il. G'ulom bobo bilan Oysara xolaning yolg'izi, ortida qoladigan yorug' izi.

Harbiyga chaqiruv keldi.

Yolg'izni afg'on urushiga olib ketishdi.

Xola ko'p yig'ladi. Xolaning ko'zi xira tortdi. Xola ko'rmay qoldi. Xola: «Hali o'g'lim kelsa, ko'zim ochilib ketadi», deb qo'yardi.

Sog'inch dardi, tahluka azobi xolaning ich-ichini ham kuydirib ketdi. Bir yil o'tar-o'tmay xola omonatini egasiga topshirdi.

G'ulom bobo bukchayib qoldi. Ikki ko'zi eshikka qadaldi. Faqat eshikni ko'rdi. Yolg'izning yo'liga tikildi ikki ko'zi.

Paxsa devorga omonat ilingan pastak eshik tiq etsa, boboning yura-

marmartosh o'rnatib, ta'ziyanoma yozmoqchimiz.

Chol unga o'qrayib qaradi. Ichkari uyga kirib ketdi.

Eni-bo'yi yarim quloch keladigan marmar lavh olib chiqdi. Direktor marmar lavhga o'ralgan suratni – Yolg'izning suratini hamda «Men otamdan oldin o'lganman...» degan yozuvni ko'rdi. Ko'z oldi qorong'ila-shib, ich-ichidan o'kirik keldi. O'zini zo'rg'a tiyib ihradi.

– Uzu, bobojon, uzu.

– Uf-f... Kecha... Kecha rayon markaziga borib, o'zim tayyorlatib keldim. Shuni qo'yaman, – dedi bobo.

Boboning joni tosh ekan. Boboning boshi toshdan ekan. Bobo yashadi. Uzoq yashadi. Bu hayotga



gi shig' etadi. Joni halqumiga keladi. Nurab, to'kilib ketaman deb turgan ozurda ko'hna kulbadan otilib chiqib, yalangoyoq yugurgilaydi.

Ovuldosh-u qo'ni-qo'shni dalda beradi: «Keladi, bobo, keladi, Yolg'izingiz keladi...»

Yolg'iz kelmadi.

Temir tobuti keldi.

El-elomon bir qalqdi – uvvos urdi el-elomon: «Notanti taqdir, kelib-kelib shugina yolg'iz cholning Yolg'iziga chang solasanmi?...»

Bobo garangsib qoldi. Esi kir-di-chiqdi bo'ldi.

Oradan bir hafta o'tib boboning qoshiga qishloq maktabining direktori keldi.

– Maktabni o'g'lingiz Yolg'iz Xolboyev nomi bilan ataymiz. Qabriga

qasdma-qasd yashadi. O'tgan yili yuz yoshga yaqinlashib qazo qildi.

Xotira va qadrlash bayramida qishloqda bo'ldim. Qabristonning kunbotarida Yolg'iz yotgan qabr boshiga keldim. Askar kiyimida jilmayib turgan o'g'lonning surati tagida: «Men otamdan oldin o'lganman...» degan yozuvni o'qidim. O'zimni qo'lga oldim.

– Ana, yonidagi G'ulom otaning qabri, – dedi qo'shnim.

Qabr boshidagi marmar lavhdagi: «Men bolamdan keyin o'lganman...» degan yozuvga ko'zim tushdi. Endi o'zimni tutolmadim. Qabr poyida cho'kkalab o'tirdim-da, kaftim bilan yuzlarimni to'sdim. Ichimdan ko'pirib toshgan og'riqli bo'ronni to'xtatolmay o'kirib yig'lab yubordim...



АЧЧИҚТОШ

«Жалпунали» мактаб

Шаҳримиздаги мактаблардан бири. Директор Тошпўлат Нортоевнинг хонасида туман халқ таълими бўлимидан келган текширувчилар мактаб раҳбари билан суҳбатлашиб ўтиришибди.

– Мактабингиз ҳақида кўп яхши гаплар эшитганмиз, – деди текширувчилардан бири.

– Айниқса, ўқувчилар ўртасида ҳуқуқбузарлик, жанжал, бир-бирини ҳақоратлаш ва муштлашиш каби салбий ҳолатлар учрамаслиги бизни жуда қувонтирди. Интизом юқори даражада йўлга қўйилган экан. Мана шу ижобий тажрибани ўрганиб, мактабингизни, албатта, намунали таълим масканлари рўйхатига киритамиз, – дея қўшимча қилди иккинчиси.

Бу гапларни диққат билан эшитиб турган директорнинг чеҳраси ёришиб кетди:

– Ҳақиқатан ҳам, бизда тўполончи боланинг ўзи йўқ. Ўқувчиларимиз жуда иноқ, бир-бирига меҳрибон. Мана, ҳозир катта танаффус, аммо атроф сув қуйгандек жимжит, пашша учса билинади. Йўлакларда ҳам ҳеч ким югуриб, шовқин кўтаргани йўқ. Келинг, гапимнинг исботи сифатида ташқарига бир назар ташланг, – деб меҳмонларни дераза ёнига чорлади.

Текширувчилар ўринларидан туриб, мактаб ҳовлисига қарашди-ю, лол қолишди. Ҳовлида ўқувчилар уч-тўрт нафардан тўпланиб, бир нуқтага тикилганча жимгина туришар, айримлари эса чеккароқда ёлғиз ўтириб, қўлидаги нарсадан кўз узмасди. Югуриб юрган ёки қичқираётган бирор бола кўринмасди.

Аслида, болалар қўлларидagi уяли телефонларга термилганча аллақандай ўйинлар билан банд эди.

Меҳмонларнинг ҳайратдан қотиб қолган чеҳраларини кўрган мактаб директори янада мағрурланиб:

– Буни ҳали ҳолва... Болаларимиз жисмоний тарбия дарсларида ҳам қимирламай, жимгина ўтиришади. Чунки бизда интизом биринчи ўринда! – дея сўзига якун ясади.

Файратулла ШУКУРОВ



СКАНВОРД

Дилнинг тиконинг наштари сўзингдир,
Тилингдаги ёлгоннинг дафтари кузингдир,
Жавдари экиб бугдой кутсанг нодон демишлар,
Барингдан тукилганнинг бил, бари изингдир.

– ўшбу сатрлар муаллифи қимлигини
қуйидаги калиф сўздан изланг.

Аортинг яна бир номи	2	Хоккей "тўти"	Дала маши- наси	5	Сўфи Вақтин- ча фой- даланиш	Шайх- лар либоси	Сут маҳ- сулоти Имтиҳон	Овоз, товуш Ҳасса	Ҳарбий машина	"Шум бола"- нинг дўсти
Ёпиқ эгри чизиқ					Мусиқа- да энг секин ижро	Кесил- ган дарахт қолдиғи	Танбур тури Узоқ, олис			Муқад- дас зот
Сут қанди		Оху	Польша пул бирлиги				Йил, ой, кун Сибирда- ги дарё			
					Элчил, чаққон илон тури					Ибн Сино туғилган қашлоқ
Кема ясаган пайгам- бар	Юпитер йўлдо- ши		Лаб, дудок Энг йирик қурбака			"До"нинг "укаси"		Тақир бош Соҳтаоёқ жонивор		
				Эстония пул бирлиги				Мансаб- дор		Қад. хинду қабил
Хўйла, макр Винобоп узум нави		Ёзлик уй, чайла	Катта қиз			Қашқа- дарё- даги туман				
3										
Зағизгон Энг катта пирамида		Чипор	Қора елим, қатрон					Яхши- нинг антони- ми Давлат "ҳамёни" Ҳинд- даги штат		"Зан- гори олов"
Дард, изтироб АҚШда- ги штат								Тўда Гэллама		Иван Бунин ҳикояси
			Кутил- маган бахт			Эрон шоҳи Рангли металл	Салла, дастур Тоғ гули			
		Тропик мева	Авто чироғи	Ишва, ғамза	Адолат- ли Греция пули			Шеър вазн		
						Вақт бирлиги Чекланган миқдор			кир- ди - амал қирди" (мақол)	Шифо- кор миқдори
Х. К. Ан- дерсен эртаги (1848)			Сувдаги қуруқлик Суюқ ичи- даги ёғ			Чуқур уйку ёки клиник ўлим	Геомет- рик шакл			
	Кема ошпази	Езма муро- жаат			Дедал- нинг ўғли			Қури- лиш бўёғи	Зеб	
				Бахт қуши			Қаттиқ мине- рап			
	Сув йўли Қуриган лой бўлағи		От, ном		Намоз- ни бошқа- рувчи			Тўти тури		
				Секин, охиста			Бирин- чи муазин			

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV
Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Iltom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Kamol OLLOYOROV
Yuliya MUSTAFAYEVA

TELEFONLAR:

71-231-33-88;
Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1918.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
45112 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.